

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 36
Часть-5_ Январь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Январь - 2024 год

ЧАСТЬ - 5



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI DIZARTIK BOLALARGA SO'Z YASASHNI O'RGATISH METODIKASI

Alijonova Mamura

Qo'qon DPI "Qayta tayyorlov" fakulteti tinglovchisi

Annotatsiya: Dizartriyani bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, yani artikulyatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishlash, umumiy davolash, davolovchi jismoniy-tarbiya, fizioterapiya va dori-darmonlar bilan davolash ishlari.

Kalit so'zlar: Dizartriya, korreksiya, artikulyatsiya, motivatsiya.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish usullari A.G.Ippalitova, O.V.Pravdina, V.V.Ippalitova, E.M.Mastyukova, G.V.Chirkina, I.I.Panchenko, va boshkalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

1-tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish, ya'ni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqga qo'yish va mustahkamlash.

2-Fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish.

3-Nutqning ritm, oxangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

4-Paydo bo'lgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini to'g'irlash.[1.B.95.]

Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir.

Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyatsion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

Tovushlar talaffuzi ustida ishlash quyidagi holatni hisobga olib tashkil etiladi:

- Dizartriya shakli, bolaning nutqini rivojlanish holati va bola yoshini hisobga olish.

- Nutq kommunikatsiyasining rivojlanishi. Tovushlar talaffuzining shakllanishi kommunikatsiyaning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

- Motivatsiyaning rivojlanishi, bor bo'lgan buzilishlarning bartaraf etishga intilish, o'z-o'zini anglashni, o'ziga ishonch, o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'z qadrini bilish hamda o'z kuchiga ishonish.

- Differentsial eshitish idroki va tovush analizi qobiliyatini rivojlantirish.

- Ko`ruv-kinestetik tuyg`uni rivojlantirish yo`li bilan artikulyatsion tartib va artikulyatsion harakatni kuchaytirish.

- Ishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Korrektsion ish bolada talaffuzi saqlanib qolgan tovushlardan boshlanadi. Ba'zan tovushlar ancha sodda motor koordinatsiyalari tamoyiliga ko`ra tanlab olinadi, ammo artikulyatsion buzilishni hisobga olingan holda birinchi navbatda ilk ontogenez tovushlari ustida ish olib boriladi.

- Eng og`ir buzilishlarda ya'ni bola nutqi atrofdagilar uchun umuman tushunarsiz bo`lganda korrektsion ish alohida ajratilgan tovushlar va bo`g`inlardan boshlanadi. Agarda bola nutqi atrofdagilar uchun nisbatan tushunarli bo`lsa va u ayrim so`zlarda nuqsonli tovushlarni to`g`ri talafuz qila olsa unda ish «tayanch» so`zlardan boshlanadi. Har qanday hollarda va turli nutqiy holatlarda tovushlar nutqda mustahkamlanishi zarur.

- Markaziy asab tizimi shikastlangan bolalarda nutqdan oldingi davrda logopedik ishlarni muntazam olib borish yo`li bilan tovushlar talaffuzidagi murakkab buzilishlarni oldini olish muxim ahamiyatga ega.[2.B.89.]

Bola shaxsining shakllanish jarayoni insoniyatning ijtimoiy tarixiy tajribasini o`zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichda o`tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog`liq bo`ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo`shiladi. Har bir yosh davri yashalgan yosh, organizm biologik tizimlarining etilish darajasi, ularning vazifalari, shu bilan birga odamning haetiy tajribasi, bilimlarning hajmi, faoliyat turlari va mazmuni bilan belgilanadi. Yosh kattalashgan sari bolaning psixik faoliyati boyib boradi uning sensor, aqliy, hissiy, irodaviy xususiyatlari orasidagi o`zaro aloqa o`zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, xulq-atvorning tartibga solishga ta`sir ko`rsatadi. (V.I.Loginova , P.G.Samorukova). Dastlabki yetti yil mobaynida bola rivojlanishning uch asosiy bosqichini, ya'ni,go`daklik,ilk va maktabgacha davrlarni boshdan kechiradi. Har bir davr o`zicha muhim ahamiyatga ega bo`ladi, zero mazkur davr bosqichlarida yaratilgan shart-sharoitlar takrorlanmaydi.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ish dizartriyaning barcha shakllarida nutq buzilishi, umumiy va nutqiy matorika buzilishlarining mexanizmlarini bilish, hamda bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Nutqgacha bo`lgan davrda olib boriladigan korrektsion-pedagogik ishlarning asosiy maqsadi bola nutqining va shaxsini o`z vaqtida shakllantirishni taminlovchi rivojlantirishdan iborat.[3.B.157.]

Korrektsion-pedagogik ish maxsus jihozlangan xonada har kuni individual ravishda olib borilishi lozim. Mashg`ulot vaqtida har bir bolaning individual xususiyatini hisobga olgan holda gavdaning holati kerakli holat bo`yicha

joylashtiriladi. Bu holat albatta bola uchun qulay shu bilan birga patologik tonik refleksi minimal ravishda yuzaga chikishni ta'minlashi ham zarur.[4.B.101.]

Korreksion-pedagogik ishlarning asosiy yo`nalishi bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

a) diferentsiyalashgan joyli uqalash;

b) artikulyatsion mashqlar orqali artikulyatsion organlarning funksiyasini normal holatga keltirish;

v) ko`rib va eshitib qabul qilishni rivojlantirish;

g) emotsional ta'sirlarni rivojlantirish;

d) qo`l harakatlari va buyumlar bilan ishlash faoliyatini rivojlantirish;

e) nutqni tushunishni rivojlantiruvchi tayyorlov davrini shakllantirish;

yo) faol nutqni shakllantiruvchi tayyorlov davrini rivojlantirish.

Bu yo`nalishlar bolaning yoshiga va uning individual rivojlanishi holatiga bog`liq holda o`zgartirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murodjon, Xovodillayev, D. Abdurazoqova, and Ortiqov Muhtorilla. "9-13 YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARDA BOG`LANGAN NUTQNI SHAKLLANTIRISH ISHLAR TIZIMI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

2. Xovodillayev, M. X., and Nazorova Qizlarxon. "NUTQ NUQSONLARINI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH ISHLARINI TASHKIL ETISH." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

3. Xovodillayev, M. X., Qodirov Dilyor, and Xudoyberdiyev Javohir. "OG'IR INTELEKTUAL NUQSONGA EGA BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI." INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. Vol. 2. No. 19. 2023.

4. Xabibullo o`g`li, Xovodillayev Murodjon, and Komilov Otabek Iqboljon o`g`li. "ESHITISHIDA NUQSONI BO`LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." Science Promotion 2.1 (2023): 28-34.

5. Murodjon, Khovodillayev, and Kabirova Zarnigor Rakhmonjonovna. "TECHNOLOGIES OF SPEECH FORMATION IN MENTALLY DEAD CHILDREN 9-13 YEARS OLD." American Journal of Pedagogical and Educational Research 19 (2023): 56-60.

6. Rakhmonjonovna, Kabirova Zarnigor, Havodullayev Murodjon, and Ibrokhimova Sarvinoz Anvarjonovna. "ORIGIN OF DYSLALIA AND WAYS OF

ITS ELIMINATION." *American Journal of Pedagogical and Educational Research* 19 (2023): 48-51.

7. Makhmudov, Khurshidjon, and Khovodillayev Murodjon. "THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS." *American Journal of Pedagogical and Educational Research* 19 (2023): 44-47.

8. Muradkhan, Khovadillayev. "DEVELOPMENT OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 343-347.

9. Rustam, Khayitov Lazizbek, and Murodjon Khavodullayev. "DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 547-552.

10. Murodjon, Xovodillayev. "METHODS FOR THE FORMATION OF SPEECH IN MENTALLY RETARDED CHILDREN." *Academia Repository* 4.10 (2023): 332-335.

11. Xovodillayev, Abduaxatova S. Akramova Z. MX. "Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar psixologik–pedagogik xusiyatlari." *Confrencea* 12.12 (2023): 492-499.

12. Murodjon, Tilovmurodova M. Mahmudova S. Xovodillayev. "NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." *Confrencea* 12.12 (2023): 485-491.

13. 1.Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjan. "METHODS OF STUDYING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF MENTALLY WEAK STUDENTS OF Q HOME CLASS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES."

14. 2.O'gli, Nabiye Ravshanjan Shavkatjon. "Methods of studying the educational activity of mentally weak students of Q home class on the base of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 21-25.

15. 3.Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjon. "INTELEKTIDA NUQSONI BO 'LGAN O 'QUVCHILARNING XULQ-ATVORINING O 'ZIGA XOSLIGI." (2023): 140-145.

16. 4.Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjon. "TA'LIM JARAYONIDA AUTIZMLI FARZAND TARBIYALAYOTGAN OTA-ONALAR BILAN ISHLASH USULLARI." (2023): 128-132.

17. 5.Shavkatjon o'g'li, Nabiye Ravshanjon. "CONDUCT A CULTURE OF STUDENTS WHO ARE DEFICIENT IN INTELLIGENCE THE WAY OF THE FORMATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 551-557.

18. 6.Nabiyev, Ravshanjon, and Otabek Ahmadaliyev. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH." *Евразийский журнал академических исследований* 3.10 (2023): 363-367.

19. 7.Nabiyev, Ravshanjon, and Otabek Ahmadaliyev. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH." *Евразийский журнал академических исследований* 3.10 (2023): 363-367.

20. 8.Shavkatjon o'g'li, Nabiyev Ravshanjon. "Boshlang 'Ich Sinf Aqli Zaif O 'Quvchilar Nutqini O 'Stirish." *Research And Education* 1.1 (2022): 263-267.

21. 9.Ogli, Nabiev Ravshanjon Shavkatjon, and Quchqorova Farida Erkin Qizi. "Features of the Higher Nervous Activity and Psychic Processes of Students with Intellectual Deficiencies." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 19 (2023): 146-151.

22. 10.Nabiyev, R. Sh. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING SHAXSI VA SHAXSLARARO MUNOSABATI XUSUSIYATLARINI O 'RGANISH METODLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 129-134.

23. 11.Ogli, Nabiyev Ravshanjon Shavkatjon, and Ortiqboyeva Parizoda Ismoiljon Qizi. "Families of Children with Defects in the Development of Pedagogical-Psychological Work." *Journal of Pedagogical Inventions and Practices* 19 (2023): 143-146.

AQLI ZAIF O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH USULLARI

Nabiyev Ravshanjon Shavkatjon o'g'li

Qo'qon DPI Maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Halilova Xavasxon Isomiddin qizi

Qo'qon DPI Oligofrenopedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada aqli zaif o'quvchilar nutqini o'stirish usullari va ularni aniqlash, olimlar tomonidan o'rganilishi, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash va ularda uchraydigan muloqot xususiyatlari ilmiy va nazariy jihatdan atroflicha keltirib o'tilgan. Ularda uchraydigan muloqotning turli xususiyatlari haqida maktabga tayyorlash ishlari xususida so'z yuritilgan. Aqli zaif bolalarni nutqini o'stirish turli usul va vositalardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar. Aqli zaif, nutq o'stirish, ta'lim ehtiyojlari, ruhiy rivojlanishi sustlashgan, muloqot, nutq faoliyati, bilish jarayonlari, spektr, maktab ta'limi, xulq-atvor, diqqat, xotira, tafakkur

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, kelajakda Vataniga, yurtiga kerakli inson qilib tarbiyalash yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Kelajakda m'lum bir kasb-hunarni tanlashi uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Buning yo'lida yoshlikdan boshlang'ich ma'lumotlar bilan qurollanishdan iborat bo'ladi. Nogironlarni ijtimoiy va xuquqiy jihatdan ximoya qilish ularni kasb-hunarga tayyorlash bo'yicha yurtimizda bir qator qarorlar o'z aksini topmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 15-oktabr, O'RB-641-sonli qarori Qonunchilik va Senat tomonidan maqullandi. Ushbu Qonunning maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shuni ta'kidlab o'tish joizki ushbu qonunning 6-7 boblarida nogironlarni kasb-hunarga tayyorlash va sharoitlarni yaratish haqida bir qancha yo'nalishlar belgilab berilgan. Nutq inson faoliyatining yetakchi faoliyati hisoblanadi. Chunki inson atrof muxitdagi asosiy ma'lumotlarni muloqot jarayonida o'zlashtiradi. Nutq — bu kommunikatsiya ya'ni aloqa vositasi hisoblanib, har bir inson o'z tanlagan faoliyatini jamiyat a'zolariga o'rgatish va o'rganishda bevosita foydalanib keladi.

Barchamizga ma'lumki, sog'lom insonlar nutqining rivojlanishi atrofdegilar, yaqinlari e'tiboriga bog'liq holatda amalga oshib boradi. Bunda birinchi o'rinni farzandning ota-onasi egallaydi. Ota ona farzandini jismonan va aqliy jihatdan rivojlantirib boradi. Sog'lom insonlarda barcha jarayonlar asta sekinlik bilan rivojlanib boradi. Agar farzandining intellektida biror bir jarayonlar orqada qolsa yoki og'ir aqli nuqsonga ega bo'lsa, har tomonlama ota va onaga ruxiy zarba bo'ladi. Bu esa bolada

aqliy yetishmovchilik sabab ikkinchi bir nuqsonni yuzaga chiqarishiga sabab bo'lishi mumkin. Shunday kamchiliklardan biri bu aqli zaif o'quvchilar nutqidir. Aqli zaif o'quvchilar nutqi ustida bir nechta olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida faoliyat olib borishgan. Ulardan M.F. Gnezdilov, V.G. Petrova, O.V. Kashe, Ye.V. Orlova, V.V. Voronkova, V.S. Raxmonova va boshqa olimlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra birinchi sinfga kelgan aqli zaif o'quvchilarning 66%i da talaffuz nuqsonlari uchraydi deb ilmiy jihatdan asoslab bergan. Aqli zaif o'quvchilar bilan logopedik ishlarni qanchalik erta boshlash amalga oshiriladigan ishning yanada erta bartaraf etishga imkon beradi.

Bilamizki nutq bevosita umumiy matorika va aynan mayda qo'l matorikasi bilan bog'liq. Aqli zaif o'quvchilar nutqini o'stirishda texnologiya darslarining o'rnini nihoyatta katta. Chunki bu dars orqali o'quvchilarda barcha ruxiy jarayonlar (tafakkur, tasavvur, xotira, sezgi, idrok) bilan birga analizatorlar (ko'rish, eshitish, teri taktil, harakat, nutq) faoliyati ham bevosita ishtirok etadi. Tadqiqotlarga qaraganda insonning biror bir ma'lumotni o'zlashtirishida uning nechta analizatorlarining ishtirok etishiga bog'liq. Chunki bola bir vaqtning o'zida o'rganilayotgan predmet nomini eshitadi, ko'radi, ushlaydi, uning rasmini chizadi va nomini og'zaki nutq orqali takrorlaydi. Aqli zaif o'quvchilar nutqini o'stirishda texnologiya darslarida qurish-yasash jarayoni muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Darslar jarayonida o'quvchilarga oddiy bo'lgan elementar harakatlar va ma'lumotlar ham og'zaki holatda aytishga o'rgatish va qayta so'rab olish yuqori natijalarga erishishga turtki bo'ladi. O'rgatish jarayonida qayta-qayta takrorlatish aqli zaif o'quvchilarda ma'lum darajada ko'nikmalarga erishish mumkin bo'ladi. Sizda savol tug'ulishi mumkin. Qanday qilib aqli zaif o'quvchilarning nutqini texnologiya darslarida o'stirish mumkin? Texnologiya darslarining nutq faoliyatiga qanday aloqasi bor?

Aqli zaif o'quvchilar nutqini texnologiya darslarida rivojlantirishda ko'zlangan maqsadlardan biri mayda qo'l matorikasini rivojlantirish muxim hisoblanadi. Bizga ma'lumki, aqli zaif o'quvchilar mayda qo'l matorikasi birmuncha sust rivojlanganligi sababli ular bilan korreksion ishlarni amalga oshirish yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki harakatlarni rivojlanishi nutq markazlarini qo'zg'alishiga sabab bo'ladi. Texnologiya darslarida o'quvchilarni oddiy ko'nikmali harakatlar orqali qo'l barmoqlaridagi sensor tizimini uyg'otishga mashqlar orqali harakatli mashg'ulotlarni amalga oshirilib boriladi. Qo'l matorikalarini rivojlanib borganligini oddiy ko'nikmalar: mayda detallarni qo'l barmoqlari yordamida ushlashi, predmetlarni o'z o'rniga joylashi, qo'l bilan ushlab nomlashi, oddiy qog'ozlarni qaychi yordamida qirqib bo'laklarga bo'lishi va boshqa harakatlar orqali bajaraladigan ishlar va aynan ishlarni yakunlash jarayonida hosil bo'lgan manzarani yoki predmetni nomlashi uning nutqida verbal yoki noverbal tarzda o'rin olishi aqli zaif o'quvchilar nutq markaziga harakatlar orqali ta'sir ko'rsatilganligidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan barcha ishlar amaliy xarakterda amalga oshirilishi ya'ni turli metodikalar orqali bajarilishi muhim hisoblanadi. Texnologiya darslarida o'quvchilarga piyola haqida tushuncha berishda va faol nutq orqali qo'llashda bir necha usullardan foydalanishimiz mumkin. Birinchi usul: aqli zaif o'quvchiga piyola rasmi ko'rsatiladi. Bola nimaligini bilsa ham nomlay olmasligi mumkin. Ikkinchi usul: qanday jarayonlarda ishlatilishi haqida ma'lumot beriladi. Uchinchi usul : piyola rasmini chizdiriladi va tayyor bo'lgan rasmni qaychi yordamida qirqib, bir nechta mayda bo'laklarga bo'linadi va bo'laklardan piyola rasmini yeg'ish topshiriladi. Shundan so'ng bolaga hosil bo'lgan predmetni nomlashi va talaffuz qilishi so'raladi. Aqli zaif o'quvchilarning aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqib, ongining pastligi sababli piyolani asli holatdagisi bolaga beriladi. Nimaligi so'raladi, qay maqsadda foydalaniladi (kerak bo'lsa esida qolishi uchun piyola orqali suv ham ichiriladi) kabi savollar beriladi.

Texnologiya darslarida aqli zaif o'quvchilarni mayda qo'l matorikasini rivojlantirish orqali nutqiy faoliyatini ham rivojlantirib boriladi. Shunday ekan o'quvchilarda texnologiya darslarining o'rni nihoyatta yuqori o'rinni egallaydi. Biror bir predmet haqida tushuncha berishda nafaqat aqli zaif o'quvchilarda, balki so'lom rivojlanayotgan bolalarda ham bir vaqtning o'zida bir nechta analizatorlardan foydalanish ko'zlangan maqsadlarga erishishda katta ro'l o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: “Ўзбекистон”, 1992 й.
- 2.Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни. Т.: "2020 й. [хттпс://www.lex.uz/acq/16188](http://www.lex.uz/acq/16188)
- 3.Ўзбекистон Республикасининг « Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида»ги Қонуни. Т.: 2008 йил.
- 4.Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjan. "METHODS OF STUDYING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF MENTALLY WEAK STUDENTS OF Q HOME CLASS ON THE BASE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES."
- 5.O'gli, Nabiye Ravshanjan Shavkatjon. "Methods of studying the educational activity of mentally weak students of Q home class on the base of innovative technologies." *Asian Journal of Multidimensional Research* 11.12 (2022): 21-25.
- 6.Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjon. "INTELEKTIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING XULQ-ATVORINING O'ZIGA XOSLIGI." (2023): 140-145.
- 7.Shavkatjon o'gli, Nabiye Ravshanjon. "TA'LIM JARAYONIDA AUTIZMLI FARZAND TARBIYALAYOTGAN OTA-ONALAR BILAN ISHLASH USULLARI." (2023): 128-132.
- 8.Shavkatjon o'g'li, Nabiye Ravshanjon. "CONDUCT A CULTURE OF STUDENTS WHO ARE DEFICIENT IN INTELLIGENCE THE WAY OF THE

FORMATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 551-557.

9.Nabiyev, Ravshanjon, and Otabek Ahmadaliyev. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH." *Евразийский журнал академических исследований* 3.10 (2023): 363-367.

10.Nabiyev, Ravshanjon, and Otabek Ahmadaliyev. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQ XUSUSIYATLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH." *Евразийский журнал академических исследований* 3.10 (2023): 363-367.

11.Shavkatjon o'g'li, Nabiyev Ravshanjon. "Boshlang 'Ich Sinf Aqli Zaif O 'Quvchilar Nutqini O 'Stirish." *Research And Education* 1.1 (2022): 263-267.

12.Ogli, Nabiev Ravshanjon Shavkatjon, and Quchqorova Farida Erkin Qizi. "Features of the Higher Nervous Activity and Psychic Processes of Students with Intellectual Deficiencies." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 19 (2023): 146-151.

13.Nabiyev, R. Sh. "МАКТАБГАЧА YOSHDAGI AQLI ZAIF BOLALARNING SHAXSI VA SHAXSLARARO MUNOSABATI XUSUSIYATLARINI O 'RGANISH METODLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 129-134.

14.Ogli, Nabiyev Ravshanjon Shavkatjon, and Ortiqboyeva Parizoda Ismoiljon Qizi. "Families of Children with Defects in the Development of Pedagogical-Psychological Work." *Journal of Pedagogical Inventions and Practices* 19 (2023): 143-146.

15.Islomjon, Haydarov. "Excursion Lesson, The Role Of Students With Hearing Impairment In The Study Of Natural Science." *Onomázein* 62 (2023): December (2023): 1958-1963.

16.Islomjon, Haydarov, and Nabiyeva Nozimakhan. "SYSTEM OF DEVELOPMENT OF AUDITORY PERCEPTION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 1096-1101.

17.Islomjon, Haydarov. "PERIODS OF TEACHING PRONUNCIATION." *Open Access Repository* 9.11 (2023): 221-224.

18.Islomjon, Haydarov, and Odilova Rushanabonu. "ORAL SPEECH AND ITS DEVELOPMENT FEATURES." *Open Access Repository* 9.11 (2023): 206-209.

19.Islomjon, Haydarov, and Odiljonova Saminakhan. "DIFFERENTIATION OF SENTENCES IN SCHOOL FOR HEARING IMPAIRED CHILDREN THE CONTENT AND ORDER OF THE WORK CARRIED OUT ON." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 1071-1075.

20.Islamjan, Haydarov. "FORMATION OF ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF HEARING-IMPAIRED STUDENTS IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN SCIENCE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.11 (2023): 536-540.

21.Hatamjon O'g'li, Haydarov Isломjon. "PECULIARITIES OF THE USE OF SCIENCE TEACHING METHODS IN A SCHOOL FOR HEARING IMPAIRED CHILDREN." *International Journal of Pedagogics* 3.11 (2023): 1-5.

22. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA O'QUVCHILARNI TABIATSHUNOSLIK HAQIDAGI BILIMLARINI EKSKURSIYALAR ORQALI SHAKILLANTIRISH." *E Conference Zone*. 2023.

23. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA TABIATSHUNOSLIKNI O 'QITISHNING ASOSIY METODI SIFATIDA-TAJRIBA METODI VA AMALIY ISHLAR." *HOLDERS OF REASON* 1.1 (2023): 36-40.

24. Islomjon, Haydarov. "In this article, the importance of excursions in specialized educational institutions for students with hearing impairments and ways to shape their knowledge of Natural Science through excursions. Information is provided about the corrective-pedagogical o." *Onomázein hosts unpublished articles derived from scientific research* (2023): 1958-1963.

25. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISH QOBILIYATINI BUZILISHI VA YO'QOTISH SABABLARI." *Conferencea* (2023): 83-86.

26. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ENVIRONMENTAL EDUCATION OF HEARING-IMPAIRED PRESCHOOL CHILDREN BY SHAPING THEIR KNOWLEDGE OF NATURE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 510-513.

27. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "EDUCATION OF STUDENTS WITH HEARING DEFECTS THROUGH SCIENCE LESSONS DEVELOPMENT OF SPEECH AND THINKING." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 837-844.

28. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги 4947-сон Фармони.

29 Сборник материалов ИИ научно-практической конференции с международм участием «Семья особого ребенка» (19 ноября 2020 г., г. Москва)

30. Ауталипова У.И. Психолого-педагогические проблемы в воспитании детей дошкольного возраста в условиях семи. В сб. мат-лов межд.конф. «Новие подходи и пути обучения, воспитания, коррекции и интеграции детей с проблемами в развитии». Бишкек, 1998.

31. Васильева, А.К. Структура семьи. // А.К. Васильева М.: Педагогика, 1988.– 164с.

32. Венгер, Л.А., Домашняя школа. // Л.А. Венгер М.: Просвещение, 1994. – 352с.

33. Воспитание и обучение детей во вспомогательной школе./Под ред. В.В. Воронковой. М.: Школа – Пресс, 1994. – 190 с.

УДК: 616.155.194-02:616.61-008.64

“SURUNKALI BUYRAK KASALLIKLARIDA RENAL KAMQONLIKNING HUDUDIY KECHISH XUSUSIYATLARI”

*Ilmiy rahbar: Miraxmedova X.T.
Ass. Aybergenova Xurshida Shamuratovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli iqlim-geografik mintaqalarda surunkali buyrak kasalligi bo‘lgan bemorlarda anemiya sindromining tarqalishi muhokama qilinadi. Iqlim sharoitining insonning fiziologik parametrlariga, shu jumladan qon parametrlariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar natijalari muhokama qilindi.

Kalit so‘zlar: renal kamqonlik, klimat, surunkali buyrak kasalligi.

Buyrak kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarda kamqonlik ko‘p yillar davomida butun dunyo bo‘ylab nefrologlarning e'tiborini tortib kelmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida buyrakni almashtirish terapiyasiga (gemodializ va transplantatsiya) muhtoj bemorlar sonining tez o‘sishi kuzatilmoqda. Bunday holatning sababi buyrakning qaytarilmas patologiyasiga olib keladigan kasalliklar tarqalishining ko‘payishidir.

So‘nggi yillarda SBKning rivojlanishi va xususiyatlarini noqulay ekologik omillar xususan iqlimogeografik omillarning ta'siri bilan bog‘lash mumkinligi haqida munozaralar boshlandi. Respublikamiz tibbiy va geografik yo‘nalishdagi ko‘plab asarlarning ob'ekti hisoblanadi. Biroq, bu asarlarda asosan kasalliklarning alohida guruhlari yoki alohida mintaqalar yoki alohida populyatsiyalar o‘rganilgan. Temir tanqisligi anemiyasining kelib chiqish sabablari geografik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarga ham bog‘liqdir. Aynan shu omillar haqidagi bilimlar ko‘nikmasi har bir aniq mintaqaga uchun zarur bo‘lgan profilaktika choralari kompleksini belgilaydi. Ma'lumotlarning yetarli emasligi, iqlimning sog‘liqqa ta'siri va kasalliklarning kechishi to‘g‘risida milliy va mintaqaviy darajada ilmiy ishlarning yetishmasligi muammolarning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib keladi. Shu munosabat bilan JSST xalqaro miqyosda sog‘liqni saqlash siyosatini belgilovchi organ sifatida iqlim o‘zgarishini hisobga olgan holda ushbu yo‘nalishda tadqiqot salohiyatini rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston aholisining turli xil fizik iqlim omillari ta'siri fonida SBKlarida renal kamqonlikning rivojlanishini, kechishini o‘rganish edi.

Bemorlarning hayot sifatiga va umumiy omon qolishiga ta'sir qiluvchi (SBK) surunkali buyrak kasalligining jiddiy asoratlardan biri bu anemiya sindromidir. Anemiya sindromi-bu asosan qondagi gemoglobin miqdorining pasayishi natijasida

yuzaga keladigan klinik va gematologik holatdir. Anemiya bemorlarning hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ish faoliyatining va jismoniy yuklamalarga tolerantligining pasayishiga, jinsiy va kognitiv funksiyalarning yomonlashishiga olib keladi va bir qator alomatlar bilan birga keladi: zaiflik, bosh aylanishi, ko'z oldi qorong'ulashishi, ishtaha pasayishi, nafas qisilishi va boshqalar. Lekin odatda shifokorlar ushbu guruhdagi bemorlardagi anemik sindromlarga ahamiyat bermaydilar. Anemiya-bu ko'p hollarda eritrotsitlar va gemoglobin kontsentratsiyasining bir xilda pasayishi bilan kuzatiladigan klinik va gematologik sindromdir. Erkaklarda anemiya diagnostikasi bo'yicha Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining mezonlarida gemoglobin darajasi 130 g / l dan kam va gematokrit 39% dan kam, ayollarda — gemoglobin darajasi 120 g / l dan kam (homilador ayollarda 110 g / l dan kam) va gematokrit 36% dan kam.

Buyrak anemiyasi patogenezing yetakchi omili bu eritropoyetin ishlab chiqarishning yetishmasligidir (bu gormonning taxminan 90-95% buyraklarda hosil bo'ladi). Eritropoyetin yetishmovchiligidan tashqari, buyrak yetishmovchiligida suprafiziologik gemoliz (uremik muhitda eritrotsitlar umrining pasayishi) kuzatiladi. Sog'lom odam tanasida 120 kun davomida hayotiy faoliyatini saqlaydigan eritrotsitlar uremiya bilan og'rikan bemorda 70 kundan keyin membrana tuzilishining buzilishi tufayli o'ladi. Patologik jarayonning muhim bo'g'ini-bu bir nechta genezisga ega bo'lgan temir yetishmasligi. Avvalo, temir tanqisligiga uning so'rilishining buzilishi, oshqozon-ichak traktidan yashirin qon yo'qotilishi, shuningdek, gemodializ protsedurasining o'zi paytida bemorlarda takroriy qon yo'qotish, ko'plab testlar va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, eritropoyez stimullovchi dorilar bilan eritropoyezni davolash fonida funktsional temir tanqisligi rivojlanishi mumkin.

Anemiya har qanday etiologiyali surunkali buyrak kasalligi (SBK) ning tez-tez uchraydigan hamrohi bo'lib hisoblanadi. 1895 yildayoq Gyugo Vilgelm Fon Tsimssen shunday deb yozgan edi: "Ishonch bilan aytish mumkinki, gemoglobinni tizimli tekshirish boshqa diagnostika va prognostik usullar bilan bir qatorda surunkali buyrak kasalliklarida kasallik jarayonining borishi to'g'risida qaror qabul qilishda muhim rol o'ynaydi" [27].

Zamonaviy tushunchalarga ko'ra, buyrak genezli anemiya surunkali buyrak etishmovchiligining eng erta va tez-tez uchraydigan asoratidir va odatda kreatinin klirensining 40-60 ml/min gacha pasayishi bilan kuzatiladi (NKF-K/DOQI tasnifi bo'yicha CKDNING III bosqichi). Ba'zida anemiya SBKning oldingi bosqichlarida ham kuzatilishi mumkin. Surunkali buyrak etishmovchiligi (SBE) etiologiyasi SBKning dastlabki bosqichlarida anemiyaning og'irligiga bevosita ta'sir qilishi mumkin. Makroalbuminuriya bilan og'rikan bemorlarda anemiya bundan ham oldinroq kuzatilishi mumkin. SBKning III bosqichiga kelib bemorlarning 20% dan ortig'i anemiya bilan kasllangan.[24]. So'nggi yillarda SBK bilan og'rikan bemorlarda reno - va kardioproteksiya tuzilishida anemiyaning dastlabki bosqichlarida oldini olish va

davolashga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Buyrak o'rnini bosuvchi terapiya boshlangunga qadar ko'plab bemorlarda anemiya yaqqol rivojlangan. Anemiyani davolash SBKning rivojlanish sur'atlarini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Shuning uchun anemiyani tuzatish buyrak o'rnini bosuvchi terapiya (BO'ST) boshlanishidan oldin ham, keyin ham ushbu toifadagi bemorlarning kasallanish va o'lim xavfini kamaytirish uchun renoprotektiv strategiyaning muhim qismi sifatida qaralishi mumkin. Tabiiyki, anemiya darajasi ayniqsa buyrak yetishmovchiligining so'nggi bosqichida bo'lgan bemorlarda BO'ST boshlanishiga qadar aniqlanadi. Buyrak genezli anemiya barcha turdagi BO'STlarda keng tarqalgan, ammo anemiya bilan og'rigan bemorlarning eng ko'p soni dasturiy gemodializda (DG) kuzatiladi: davolanmasa, gemoglobin darajasi < 10 g/dl odatda bemorlarning 90% dan ko'prog'ida kuzatiladi.

Qonda gemoglobin kontsentratsiyasining pasayishi ko'pincha eritrositlar sonining kamayishi va ularning sifat tarkibi o'zgarishi bilan yuz beradi. Har qanday anemiya qonning nafas funktsiyasi zaiflashuvi va to'qimalarning kislorod ochligi sezishiga olib keladi. Jins va yoshdan kelib chiqib, bir litri qondagi gemoglobinning (Hb) normal darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Mualliflar tomonidan o'tkazilgan zamonoviy adabiyotlar tahliliy sharhi shuni ko'rsatdiki gemodializdan oldingi bosqichda surunkali buyrak kasalligi bor bemorlarda kam qonlilikni davolash to'g'risida zamonaviy axborotlarda ushbu muammo dolzarbligicha qolayotganligini ko'rsatdi.

O'zbekistonda hududlarning deyarli 80 foizini tekisliklar egallaydi, qolganlari esa tog'lardir. Issiq iqlim tekis yerlarda katta cho'llarning paydo bo'lishiga hissa qo'shdi: mamlakatning markazida Qizilqum, shimoli-g'arbda Aralqum va Ustyurt cho'llari joylashgan. O'zbekistonda yog'ingarchilik notekis tushadi, ularning katta qismi tog'li yerlarga va aksariyat kam qismi dasht va cho'llarga yog'adi. Yonayotgan quyosh va siyrak yog'ingarchilik havo va er yuzasini quritadi. Aynan shu narsa XX asrning oxirida Buyuk Orol dengizining (shimoli-g'arbiy) qurib ketishiga ta'sir qilib, uning Sharqiy qismini cho'lga aylantirdi. O'zbekistonda yoz issiq, aslida maydan boshlanadi va oktyabr oyining o'rtalariga qadar davom etadi. Iyundan avgustgacha yomg'ir kamdan-kam uchraydi, osmon tiniq, havo quruq va issiq saqlanadi. Kunduzgi harorat $+33^{\circ}\text{C}$ atrofida, janubda (Termiz) $+42^{\circ}\text{C}$ atrofida, kechqurun esa $+20^{\circ}\text{C}$ ga tushadi. Ba'zida chang bo'ronlari ko'tariladi. Yog'ingarchilik va bulutlar yo'q. Cho'llarda kuchli shamollar esadi va ko'p tuz, changlarni havoga ko'taradi. Ko'llar va suv o'tkazgichlaridagi suv $+25^{\circ}\text{S}$ gacha qiziydi.

Orol dengizining qurigan qismi tuz makoniga aylanib, atrof muhitga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shamol tuzlarni to'zitishi oqibatida Orolbo'yi hududlariga tuz yog'ini yog'moqda. Bu esa iqtisodiyotga, aholi salomatligiga salbiy ta'sir etmoqda. Orolning qurigan qismidan tuz aralash chang-to'zon uzoq masofalarga, hatto, O'rta Osiyo

tog'laridagi muzliklar yuzasiga tushib, uning erishini tezlashtirmoqda. Tuz yomg'iri, ayniqsa, unga yaqin bo'lgan hududlarga katta iqtisodiy va ekologik zarar keltirmoqda. Dengiz quriganidan qurigan dengiz tubining cho'llanishigacha bo'lgan davrda atmosferaga har yili 60 dan 100 tonnagacha chang va tuz chiqariladi [7]. Ushbu chang zarralarining kimyoviy tarkibi-kaltsiy, magniy, natriy yoki natriy xlorid magniy tuzlaridan iborat. Cho'kindi tuzlar sifat jihatidan asosan sulfat-xlorid, xlorid-sulfat, ba'zi hollarda sulfat yoki xloriddir. So'nggi o'n yilliklarda Qoraqalpog'iston hududida yillik chang kunlari soni 100 tadan 180 taga ko'paydi. Chang bo'ronlari va chang kunlarining asosiy soni maydan oktyabrgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Orol dengizining qurishi mintaqaning iqlimini o'zgartirdi. Mintaqada yuzaga keladigan eng muhim salbiy ekologik omillardan biri bu atmosfera havosining ifloslanishidir. Tabiiy muhitni o'zgartiradigan boshqa omillar bu hududning suv ta'minoti, ichimlik suvining kimyoviy ifloslanishi, pestitsidlarning ifloslanishi (suv va oziq-ovqat tarkibidagi pestitsidlarning qoldiq miqdori), erning sho'rlanishi va yashash sharoitlarining yomonlashishidir. So'nggi 30 yil ichida ushbu jarayonlarning faollashishi suvdan foydalanish tizimni tartibga solishning buzilishi, shuningdek erdan foydalanishning keskin o'sishi tufayli yuzaga keldi. Shunday qilib Janubiy Orolbo'yida (Qoraqalpog'iston Respublikasi) aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatadigan murakkab ekologik muammolar majmuasi shakllandi.

Atrof-muhitning bunday noqulay ekologik holati tufayli bolalar o'limining yuqori darajada ko'payishi, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda tana vaznining pastligi, anomal jismoniy rivojlanish, anemiya, buyrak kasalliklari, nafas olish kasalliklari, astma, toksik kimyoviy moddalarning organizmga sezilarli darajada kirib borishi, giperkalsiyuriya, buyrak kanalining disfunktsiyasi, jigar saratoni kabi kasalliklar ko'plab kuzatilmog'da. 2014-2016 yillarda 15-18 yoshli o'smirlarda o'tkazilgan antropometrik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalarning 8-9 foizida massa yetishmovchiligi mavjud, 6-7% ortiqcha vaznga ega, qizlarning 14-15% massa yetishmovchiligi, 2-3% ortiqcha vaznga ega. Boshqa bir tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanida yashovchi o'smirlarning asosiy antropometrik ko'rsatkichlari me'yoriy ko'rsatkichlardan past bo'lgan, o'g'il bolalarning 39,17 foizi va qizlarning 50 foizi astenik tana tuzulishiga ega.

Dunyo miqyosida olib borilayotgan ko'pgina tadqiqotlarga qaramay hanuzgacha surunkali buyrak kasalligining kechish xususiyatlari va davolash bo'yicha muammolar o'z yechimini yetarlicha topmagan. Bu kasallikning ko'p omilliligi bilan bog'liq, ya'ni oqsil, suv-elektrolit, minerallar almashinuvi, kislota-ishqor muvozanati buzilishlari, qon tarkibining sifat va miqdoriy jihatdan og'ir hamda chuqur o'zgarishlari kabi ko'pgina patogenetik bo'g'inlarning qo'pol, shuningdek qaytmas buzilishidadir. Mazkur ko'p omillarni chuqurlashtiradigan, yomonlashtiradigan, jadallashtiradigan va oqibat o'limga olib keladigan eng asosiy omil bu –anemik sindrom va uremik

intoksikatsiyadir. Shuningdek SBK zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining asosiy bir tibbiy-ijtimoiy muammolaridan bo'lib qolmoqda. Sababi uning keng tarqalib borayotgani va jadal ravishda avj olib borishi pirovardida terminal buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi nisbatan qimmat buyrak o'rinbosar terapiyani taqozo etmoqda. SBKning ayni vaqtda dunyo miqyosida tarqalishi o'rtacha 10 dan 20%gacha tashkil etmoqda. Biz yuqorida keltirgan tadqiqotlarimiz asnosida mana shu muammolarning ba'zilariga, lekin ahamiyati nisbatan muximroq bo'lgan patogenetik bo'g'inlariga atroficha to'xtaldik. SBK dializgacha bo'lgan davrida bemorlarida buyrak faoliyati buzilishi bilan nafaqat buyrak faoliyatini belgilovchi ko'rsatkichlar bo'lgan mochevina, kreatinin oshib ketishi hamda KFTning pasayib ketishi kuzatiladi, balki bemorlarning ruhiy holati salbiy tomonga o'zgaradi va hayot sifati yomonlashib boradi. Bunda bemorlarning jismoniy va emotsional faoliyati o'z turmush tarzidan qoniqmaslik xissi sog'lom shaxslarga nisbatan sezilarli darajada farq qiladi. Chunki kechki bosqichlarida o'tkazilishi lozim bo'lgan o'rinbosar terapiya, buyrak transplantatsiyasi kabi tadbirlar shundoq ham yillar mobaynida muttasil medikamentoz davolanishga bog'lanib qolgan SBK bemorlarining ruhiyatiga qattiq zarba bo'ladi.

Shunday qilib ilmiy ishimiz davomida Orol bo'yi mintaqasida anemic ko'rsatkichlarning SBK boshlanmasidan oldin ham kuzatilganligini anglab etdik. Shularni inobatga olgan holda QQR kelgan bemorlarda anemik simptomlarni erta aniqlash, tashxislash, davolash va albatta bu narsalarni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozimdir.

AMALIY TAVSIYALAR

- Eritropoez snimullovchi (ES) terapiyasini boshlashdan oldin temir almashinuvi holatini tekshirish kerak.
- Vena ichiga yuborish SBK bilan og'rigan bemorlar uchun temir preparatlarini qabul qilishning eng yaxshi usuli hisoblanadi, chunki uremiya bilan og'rigan bemorlarda temirning oshqozon-ichak traktida so'rilish darajasi sezilarli darajada kamayadi. Gemodializ (yiliga 1-4 litr qon) bilan og'rigan bemorlarda muqarrar qon yo'qotishlarini to'ldirish uchun temirni kiritishning ushbu usuli majburiydir.
- SBKning dastlabki bosqichlarida bemorlarda temir preparatlarini ichkarida qo'llash joizdir. Agar ularning samaradorligi past bo'lsa, temirni tomir ichiga yuborish kerak.
- Mutlaq temir tanqisligi aniqlanganda, 6-10 hafta davomida gemodializ kunlarida 1000 mg v/i temir yuborilishi kerak.
- Temir preparatlarini buyurish chastotasi bo'yicha aniq tavsiyalar yo'q.
- Temir preparatini tanlashda uning xavfsizligi va bardoshliligi profilini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Воробьев П.А. Анемический синдром в клинической практике. М.: Ньюдиамед, 2001. 168 с.
2. Исследование системы крови в клинической практике. Под ред. Г.И. Козинец, В.А. Макарова. М.: Триада-Х, 1997. 480 с.
3. Кассирский И.А., Алексеев Г.А. Клиническая гематология. М.: Медгиз, 1955. С. 129–249.
4. Козинец Г.И. Интерпретация анализов крови и мочи. Клиническое значение анализов. СПб.: АОЗТ «Салит», 1995. 123 с.
5. Hematology: basic principles and practice. Ed. by Ronald Hofman et al., 5th ed. Churchfull Livingstone, 2008. P. 427–659.
6. Hillman R.S. Hematology in clinical practice. 4th ed. McGraw-Hill, 2005. P. 1–170.
7. Reasoning and Decision Making in Hematology. Ed. by B. Djulbegovic. Churchfull Livingstone, 1992.
8. Wintrobe's Clinical Hematology. Ed. by D.W. Pine, Jr. 10th ed. Williams & Wilkins, 1998.
9. World Health Organization. Basic documents. 26th ed. Geneva: WHO, 1976. Vol. 1.
- 1.Ещанов Т.Б. Проблемы охраны здоровья населения в зоне экологического бедствия // Вестник ККО АН РУз.- 1991.- № 1.- С.66-71.
- 2.Здоровье, окружающая среда и изменение климата// https://apps.who.int/gb/ebwha/pdf_files/WHA72/A72_15-ru.pdf
- 3.Константинова Л.Г., Реймов Р.Р. Пространственная дифференциация территории Южного Приаралья как зона экологического бедствия: // Вестник ККО АН РУз.- 1993.- С.3-8.
- 4.Константинова Л. Г., Курбанов А. Б., Атаназаров К. М. Качество питьевой воды, состояние здоровья населения и прогноз заболеваемости населения Республики Каракалпакстан //Экологические факторы и здоровье матери и ребенка в регионе Аральского кризиса: Материалы Междунар. семинара. -Нукус: Фан. - 2001.- С.87-95.
5. Курбанбаев Е. Артыков О. Курбанбаев С. Аральское море и водохозяйственная политика в республиках Центральной Азии// <http://mail.icwc-aral.littel.uz/library/rus/aral-nukus.pdf>
- 6.Мамбетуллаева С.М., Тлеумуратов Т. Некоторые вопросы изучения взаимосвязи состояния здоровья населения с качеством окружающей среды // Вестник ККО АН РУз.- 2005.- № 3.- С.10-11.
- 7.Олейникова Е. В., Нагорный С. В., Зуева Л. П. Экологические обусловленные заболевания // Здоровье населения и среда обитания. - 2005. - № 2. - С.8-15.
- 8.Проблемы Арала и водных ресурсов региона// <https://www.un.int/uzbekistan/news>
- 9.Руководство по комплексной профилактике экологически обусловленных заболеваний на основе оценки риска. М.2017 г. 68 стр.
- 10.Снижение уровня Аральского моря// <https://ru.wikipedia.org/>
1. Дегтева Г.Н. Состояние эритронов у жителей северных территорий // Экология человека.- 2004.- № 6.- С. 53–57.
2. Додхоева М.Ф., Рафиев М.К., Каюмова Д.А., Сабурова Х.Ш. Некоторые аспекты здоровья населения Таджикистана в условиях потепления климата // ДАН РТ.- 2014.- № 7.- С. 21–28.
3. Каджарян В.Г., Бидзиля П.П., Соловьюк А.О. Диабетическая нефропатия: современные принципы профилактики и лечения // Запорожский медицинский журнал.- 2011.- Т. 13(5).- С. 112–117.

TALABALARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKILLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI

Nabiyeva Mexribon Rabbimkulovna

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand Davlat Universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba orttiradi, ta'lim tarbiya, turli munosabatlar ta'sirida barkamol shaxs sifatida shakllanadi va rivojlanadi. Insonni jamiyatdan va shaxslararo bo'ladigan o'zaro muloqotdan ajratib qo'yish uni shaxs sifatida shakllanishiga to'siq bo'ladi.

Mazkur maqolada mana shu muhim omil bo'lmish shaxslararo muloqotga talabalarni tayyorlashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan tomonlar, talabalarning muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantiradigan usullar va pedagogik jarayonda o'ziga xos bu usullardan foydalanish natijasidagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkinligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, shaxs, psixologiya, individuallik, metodlar, madaniyat, ijtimoiy, ko'nikma, shakllantirish, dialog, vosita, didaktik o'yin, psixologik trening, psixodrama.

Taraqqiy etayotgan Yangi O'zbekistonda bugungi kunda zamonaviy ta'lim metodining keng qamrovli jihatlari ta'lim tizimida qo'llanilib kelinmoqda. Yurt ravnaqi, mamlakatimiz kelajagi uchun zamonaviy ta'lim katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda, yangi yangilanish davrida zamonaviy ta'limning maqsadi – sifatli kadrlar tayyorlash, talaba shaxsini rivojlantirish, talabalarni ijtimoiy ahamiyatga ega ruhda tarbiyalash, ta'lim sifatini oshirish, talabalarni jamiyatga zarur shaxs yetuk insin sifatida tarbiyalashdir.

Oily ta'limda shaxs rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biri talabalarning muloqot madaniyatidir. Oily ta'limda intellectual soha mutahassisi va ta'limga ijodiy yondashaoladigan shaxsni rivojlantirishda muloqot madaniyati eng muhim resurslardan biridir.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish oily ta'lim talabasini universal xususiyatlarni egallashga, jamiyatning ijtimoiy talablarini qondirishga va yuqori professional bilimlarni egallashga imkon beradi.

L.N.Kulikova, A.V.Molожavenko, V.N.Myasichevlar o'z ishlarida muloqotning talaba shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyatiga katta baho berganlar. Psixologlar shaxsning muloqot imkoniyatini aniqlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilganlar. «Nima uchun muloqot qilish kerak?». Mazkur savolga quyidagicha javob

olganlar: «muloqot kishilar orasida umumiylikni tarkib toptiradi, ularning birgalikdagi faoliyatini boshqaradi, bilish usuli sifatida namoyon bo‘ladi, alohida shaxslarni bilish asosi sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa muloqot, shaxsning o‘z-o‘zini aniqlashiga xizmat qilib, uning hamkorlikdagi faoliyatga kirishishini ta‘minlaydi va muloqot sub‘ektlari orasida o‘zaro hamkorlik muhitini vujudga keltiradi».¹ Nima uchun muloqotga kirishish kerak, degan savolga javob berishdan avval biz muloqotga jalb qiladigan odatlar, ehtiyojlar, ko‘nikmalar mavjudligini unutmasligimiz lozim. Turli umumiylikka uyg‘unlashar ekan inson bu jarayonda u muloqotning ob‘ekti va sub‘ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqot jarayonida shaxs o‘zida atrofdagilarning muayyan ta‘sirini his etadi. O‘z navbatida uning o‘zi ham muloqot jarayonida ularga muayyan ta‘sir ko‘rsatadi.

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi ehtiyoji hisoblanadi. Muloqotni ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi deb ta‘riflash mumkin. U odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o‘rin egallab, insondagi eng muhim ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari ozaro munosabat va o‘zaro ta‘sir shakllarini qamrab oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma‘lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo‘lib, unga odam hayoti mobaynida o‘rganib boradi.

Shaxslararo muloqot funksiyalarini amalga oshirish – muloqot sub‘yektining ma‘naviyaxloqiy ko‘rsatmalari, shuningdek, insonparvarlik, emotsional-ijobiy, shaxsiy yondashuv, individuallik va o‘ziga xoslik kabi yo‘nalishlar bilan belgilanadi.

Muloqot funksiyasi faqat muloqot sub‘yektlarining ma‘naviy-axloqiy yo‘nalishigina emas, balki ko‘p jihatdan, uning insonparvar-axloqiy mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Muloqotning shakli, lahzali, tasodifiy, tematik, rejalashtirilgan – bayon etish, axborot, xabar, suhbat, suhbatlashish, gaplashish, munozara kabilrdan iborat.

E‘tibor berish, qiziqish, ma‘qullash, hamdardlik, istiqbolni ko‘ra bilish yordamida ta‘sir ko‘rsatish, tushunilgan va anglab yetilgan motivatsiya asosidagi faoliyat kabilar muloqot turiga kirib, masalani hal etishga yo‘naltirish, emotsional muhit yaratish, rag‘batlantirish, yo‘naltirish bilan hamkorlikdagi harakatlar yakunini yasashga yo‘naltirish, shuningdek, muloqotning samaraliligi, uning mavzusiga ijobiy motivatsiyasi, e‘tibori, qiziqishiga bog‘liq bo‘ladi.

¹ Nikonova O. V. Formirovaniye kulturi obsheniya. Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. Bryansk. 2001. 18 s.

Motivatsiya muloqot jarayonining boshqaruvchisi sifatida ma'no, onglilik, ishonch va qat'iylikni talab qiladi. Muloqotning ma'noli jihatlariga uning maqsad hamda umumiylikka erishishda o'z individualligini ko'rsatishi, shuningdek, muloqotning turli funksiyalaridan foydalanish – qo'zg'atuvchi, ekspressiv, tashkiliy, informative, emotsiyali, dalilga asoslanganligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Shaxslararo yuzma-yuz muloqotlarda insonning potensial-shaxsiy, kasbiyehtiyoli hamda amaliy-idrok etish jarayoni sodir bo'ladi.

Muloqot va faoliyat tushunchasiga ijtimoiy faollikning o'ziga xos shakli va ayni bir vaqtda individual mustaqillik sifatida qaraladi. Bu yerda muammoni qo'yish, uning maqsadi, vazifasi, masalalari, muloqot vaziyat-sharoiti, muhit omillari, elementlari, muloqot sub'yektiga talab muhim hisoblanadi. Bu jarayonda boshqa insonning qadr-qimmatini hurmat qilish, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan odob, axloq, etiket bo'yicha oddiy qoidalarga amal qilish zarur. Shu bilan birga emotsional-ijobiy omil, simpatiya, empatiya muhim o'rin tutadi. So'z, nutq, hikoya qilib berish, xabardor qilish, gapirish, suhbatni olib borishni bilish (shorigiga e'tibor, diqqat, tushunish va hurmat bilan qarash, yuz ifodalari bilan ham fikrga qo'shimcha ma'no bera olish) katta ahamiyatga ega. Muloqot, albatta, ma'naviy, insonparvarlik hamda yuksak odoblilik darajasida bo'lishi kerak, asosiysi, shaxslararo muloqotda o'zini suhbatdoshi o'rniga qo'ya olishni bilishi zarur.

Shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirish uchun suhbatdoshning kayfiyati va holatini his qilishni o'rganish kerak.

Shaxslararo munosabat jarayoniga kiritilgan elementlar orasida ovoz ohangi, yuz ifodasi, harakatlar, ko'z qarashlari, suhbatdoshlar orasidagi masofa mavjud. Ushbu omillar tufayli biz boshqa shaxsning shaxsiyati, hissiy holati yoki niyatlari to'g'risida xulosa chiqarishimiz mumkin.

Shaxslararo muloqot – o'zaro aloqali, o'zaro bir-birini tushunish, idrok etish, axborot almashish, o'rgatish, rivojlantirish, tarbiyalash, o'zini namoyon etish, o'zini faollashtirish, ijtimoiy o'zaro aloqalar orqali ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ega.

Insonparvarlik – inson o'z huquqlari va qadr-qimmatini, shaxs sifatidagi qimmatini hurmat qilishni ifoda etuvchi qarashlar to'plami, uning farovonligi, har tomonlama rivojlanishi, hayoti uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risida g'amxo'rlikdir. Insonparvarlik – insonning oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishiga asoslangan qarashlar to'plamidir. Shaxslararo muloqotni insonparvarlashtirish jihati suhbatdoshlarning intellektual-ma'naviy imkoniyatlarini faollashtirish va shaxsiyijtimoiy o'zligini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Mana shunday muloqotda talabalar shaxsi shakllantiriladi, chunki bu jarayonda ularning ichki imkoniyatlari, shaxsiy insonparvarligi to'la namoyon etiladi. Bu yerda bo'lajak mutaxassislarni shaxs, inson va insoniylik sifatleri to'g'risidagi bilimlari va muloqot madaniyati namoyon bo'ladi.

Insonparvarlik asosidagi muloqot – bo'lajak mutaxassislar uchun shaxsiy, ijtimoiy, hayotiy va kasbiy faoliyatlarining turli sohalarida insonparvarlik g'oyalari va qadriyatlarini amalga oshirishning muhim shart-sharoitlari hisoblanadi.²

Muloqotning insonparvarlik jihatlari ma'naviy-amaliy asosga – axloqiylikka asoslanadi. Inson ijtimoiy hayoti jarayonida ishlab chiqilgan (avlodlar hayotiy tajribalari asosida) va axloqiy kategoriyalarda aks ettirilgan g'oyalar, ideallar, qoidalar – me'yoriy axloqiylikka asoslanadi.³

Англиянинг ЭКОНОМИСТ журналида ёзилишича сув сотишдан келаётган даромад йилига бир триллион доллорга етар экан . Бу эса нефт компаниялари даромадининг 40% ташкил этади. Ун йилдан сунг бозорда беш триллион доллор микдорида сув сотила бошлади. Хозирги пайтда кун тартибида ичимлик суви етишмовчилигини Миллий масштабларда хал килиш учун ичимлик сувининг ката бозорини яратиш масаласи турибди. Сувни сотиш учун нефть казиб чиқаришга кетгани каби харажат килиш талаб этилмайди. Демак якин келажада ичимлик суви манбаига эга мамлакатларда нефть сотувчи давлатлардан хам купрок бойиш имкониятлари пайдо булади. «Сув узи кам тоза сув ундан кам » Жахон согликни саклаш ташкилоти баҳолашича 1. 1 миллиард киши тоза ичимлик сувидан махрум, жами 2, 4 миллиард одам оддий санитария шароитлари билан таъминланмаган. Айниқса кишлок жойларида бунинг Еркин мисолини куриш мумкин. Бу худудларда аҳолининг 29 % тоза сувдан 62 % санитария шароитларидан бебахра. Шахар аҳолисининг кеёкин купайиб кетиши сув тансиклигини купайтириб юбормокда, Айни пайтда шахарда 6% одам тоза ичимлик сувига 14% эса санитария шароитига мухтож. Сув она табиатнинг Ер юзидаги хар бир тирик жонот мавжуд булишини таъминловчи мукаддас инъомдир. Сув табиатда энг куп таркалган моддалардан бири, ер юзининг 71% ни сув эгаллайди, одамзод танасининг 65% сув ташкил этади, инсон ишлаб чиқариш фаолитининг ажралмас комопоненти хисобланади, Урта Осиё минтақаси халки, шу жумладан шахар аҳолиси. Барча замонларда сувни ариқлардан ёки сув йигиш ва тиндириш учун мулжалланган махсус мослама ховузлардан олишган, бироқ 20 аср 30 йилларида урбанизация суръати усиши шахарларни биринси навбатда Тошкентни тоза ичимлик суви билан таъминлаш муаммосини кеёкин килиб куйди. Жушкин саноат ва турар жой, курилиш, аҳоли сони тез усиши сув манбаларини тоза саклаб қолишга имкон бермасди, бу нарса шахарда муракаб санитария эпидемиологик вазиятни юзага келтирди, факат сув утказгич тармоклари табиий манбалардан сув олиш, уни тозалаш, зарасизлантириш, ташиши хамда аҳоли саноат корхоналари ва бошқаларга узатишни таъминловчи мухандислик иншоатлари ва курилмалари мажмуини куришгина бу муаммони хал этади,

Тошкент шахар Сирдарёнинг унг ирмоги булиб, Чирчик дарёсини шакллантирган сугориш тизими марказида жойлашган, унинг узунлиги 174 км, сув йигадиган майдони 142, 4 минг кв, км, дарё суви таъминланиши режимининг хоссасикор яккол устун булган корли музлик булиб, бу нарса йил давомида сув сарфлашда кеёкин узгаришларни келтириб чиқаради

19 асрнинг охирида артизиан кудукларидан сув тортувчи бир канча сув иншоатлари курилган эди, 1909 йилда хусусий Дс Пантоти ва К ширкати Салар

тор кучаси адогида Саларнинг жарли киргогида сув кутаргич минораси булган артизиан кудуги куради ва унинг дебити соатига 1500 метрга етади,

Шахар сув утказгич тармоклари курилиши зарурлиги 191517 йиллардаёк Тошкент шахар думасида бир неча бор мухокама қилинган. Тошкент сув утказгич тармоклари биринчи навбати бир қисми 1931 йил биринчи майда ишга тушди, 1932 йили биринчи навбати тулик ишга тушиб, иккинчи навбати курилиши бошланди ва ушбу даврда Тошкент суткалик сув чиқариш қуваати 3800 метр куб Бузсув ва қуввати 360 метр куб булган шахар вадақачка томонидан сув бўилан таъминланар эди,

1969 йил 19 августда ишга туширилган Кадирий бош ичимлик сув иншооти бир суткада 225 минг метр куб, 1974 йилда 575 минг метр куб, 1984 йилда 1171 минг метр куб, 1990 йилда 1375 минг метр куб сув берган. Хозирда Тошкент шаҳрини ичимлик шаҳрини ичимлик суви билан таъминлашда иккита сатхий. Ва олти ер ости иншооти бор.

1. Бузсув бош ичимлик сув иншоотлари
2. Кибрай ичимлик сув иншоотлари
3. Жанубий ичимлик сув иншоотлари
4. Кодирий бош ичимлик иншоотлари
5. Корасув ичимлик сув иншоотлари
6. Сирғали ичимлик сув иншоотлари
7. Бектимир ичимлик сув иншоотлари
8. Куйлик ичимлик сув иншоотлари

Узатилаётган сувнинг 74% фойзи сатхий, 26% эса ер ости сув манбаларига тугри келади. Хаётнинг узи ҳамма жойда сарфиёти ҳисоботини жорий этишни ва уни ҳал этишни воситаси сифатида сув улчаш асбобларисув улчагичлар урнатишни биринчи галдаги вазифа тарикасида илгари сурди. 1995 йилдан бошлаб бу масала Республика ҳукумати ва унинг жойлардаги органларнинг катъий эътибори предметига айланди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 1995йил 26 майда 185сон Турар жой фонди ва ижтимоиймаданий мақсаддаги объектларда сув ва газни ҳисоблаш асбобларини урнатиш ва ишлаш ҳақидаги қоидаларни тасдиқлаш тугрисидаги қарор қабул қилди. Тошкент шаҳар Ҳокими 1998йил 17 мартда қуп қаватли уйларда ва яққа тартибда қурилган уйларда ичимлик сувини ҳисоблаш сабаблари урнатиш тугрисида қарор қабул қилинган эди. Сув улчаш асбобларининг урнатилиши сув реал тижалишига имқон беради. Сувнинг тежамли сарфланиши ҳисобига тежалган сувни эса хозирги қунда улқан исрофгарчиликлар тугфайли сув бормайдиган уйларга йуналтириш имқонини беради. Бутун Дунё соғлиқни сақлаш уюшмасининг хозирги ва келажакдаги мақсади соғлиқни сақлаш сиёсати ва унинг дастури ер юзи аҳолисини 2005йилгача фақатгина даволаш профилактика ишлари билан

таъминлабгина колмай балки ахолини тоза ичимлик суви билан таъминлашни хам кузда тутган. Бутун Дунё согликни саклаш уюшмасининг хужжатларида шундай дейилади: Каерда булмасин ахолини соглигини саклаш унинг юкумли каслликлар билан касалланишини олдини олишда тоза ичимлик суви билан таъминлаш оркали эришилади! Дейилади. Ахолини сувга булган эхтиёжини Тула тукис кондириш максатида шаха рва бошка турар жойларда катта катта сув тармоги иншоатлари курилмокда. Асосий мақсад ахолини марказлаштирилган тоза ичимлик суви билан таъминлашга каратилган. Кейинги йилларда регионлар учун гурухлаштирилган сув тармоклари курилмокда сувнинг тозалашнинг янги янги техник усуллари ишлаб чикилмокда янги янги сув хавзалари сув омборлари пайдо булмокда. Сунги ярим аср мобайнида саноати ривожланган давлатлар ишлаб чиқариш ва кишлок хужалиги эхтиёжларига сув харажати саморадорлигини оширишга эришган хусусан томчилаб сугориш тизимининг киритилиши сувни тежашда мухим боёкич булди.

Сув овкат махсулотларни туқималарга таркатишга тери ва нажас йулларида Буг холатида чиқиши билан тана харорати мувозанатини саклашда иштирок этади. Сув истемолини тугри ташкил қилишда кунлик овкат таркибида канча суюклик борлигини назоратда тутмок зарур.

Масалан: Янги сабзавот ва меваларда 90% картошка ва гуштда 75% нонда 7. 7% гача сув булади.

Аммо сувни ва бошка чанков босди ичимликларни хаддан зиёд куп истемол қилиш зарарлидир чунки бундай холатда Юрак ишининг ажратиш аъзоларининг (тери буйрак) фаолиятининг ошишига олибкелади. Бундай холларда организмнинг тери сатхидан куп микдорда суюклик ажралиши натижасида шу билан бир каторда тери билан организмда суда эрийдиган витаминлар Ош тузи ва менирал тузлар хам чиқиб кетади.

Одам бир кеча кундуз мобайнида ёшига караб 100млдан 3000мл атрофида сув истемол қилади жумладан 12001300мл (48%) сувни суюклик қуринишида 10001200 сувни овкат таркибида истемол қилади. Озика моддаларнинг эндоген оксидланиши натижасида организмда 300мл атрофида сув хосил булади. Организмдаги сув доимо янгиланиб туради: катта ёшли одамда 15кун мобайнида болаларда эса 35 кунчида барча сув малекулалари янгиланиб туради. Инсон организмнинг буйрак упка меда ичак йули тери сув алмашинувида фаол иштирок этади. Атрофдаги хаво харорати юкори булиши билан 45 литр сув терлаш билан бирга тери оркали чиқиб кетади шу муносабати билан организмнинг сувга булган эхтиёжи янада ортади.

Йукотилган сув микдорининг купаишига караб одам узининг ёшон хис қила боради. Организм таркибидаги 10% сувни йукотиши мода алмашиниши

жараёнларига жиддий таъсир курсатади 1520% сувнинг организмдан чикиб кетиши эса унинг улимга олиб келиши мумкин. Хаво харорати сезиларли даражада тушиб кетганда организм узидан 25% сувни чиқариб юборган булса бу холат ҳам улим хавфини тугдириши мумкин. Организмда сув етишмаслиги туқималараро суюкликлардаги осмотик босимнинг мувозанати бу эса организмда азот чиқиндилари туқланишига ва моддалар алмашинуви бузилишига олиб келиши мумкин.

Организмнинг сувга булган эҳтиёжи чанкоклик орқали акс эттирилади чанкоклик белгилари марказий асаб системасининг чанков марказининг кузгалиши натижасида келиб чиқади. Бир суткада чанкокни босиш учун истимол қилинадиган сув миқдори иш қобилиятига эга (харакатдаги) кишиларда 2. 54 литрни ташкил этади.

Катта ёшли одам томонидан сув миқдори оғирлигининг тахминан 6570% ташкил этади сувнинг асосий қисми хужайраларда булади хужайралардан ташқаридаги сув 1820% ни ташкил қилади. Санитария гигиена жихатдан сув фоизининг физиологик талабини қондиришдан ташқари анчагина сув миқдори шахсий гигиена маиший хужалик ва ишлаб чиқариш эҳтиёжларига сарф булади. Сув баданни тоза саклаб туриш учун Юз қулни ювиш учункунига 510литр гигиеник душ қабул қилиш учун 180150литр Қир ювиш оқват таёрлаш идиштовок ювиш учун 58литр ишлатилади. Аммо юқоридагилардан ташқари уйжой жамоат биноларини тоза саклаш канализасиядан фойдаланилган холатда чиқиндиларни ювиб юбориш қучаларни ювиш яшил уситмликларни сугориш учун ҳам сув керак булади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Uktamovich, K. O. CLINICAL AND THERAPEUTIC NUTRITION. // *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, (2023). – P. 42–44.
2. Uktamovich, K. O. Diets of Altered Consistency. // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, (2023). – P. 81–84.
3. Jumaeva A.A., Qodirov O.O`. HYGIENIC BASES OF THE ORGANIZATION OF CHILDREN'S NUTRITION. // *CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH* ISSN: 2181-2489 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2022. – P. 264-268
4. Uktamovich, K. O. Ecological Approaches to Human Nutrition. // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, (2022). - P. 251–254.
5. Uktamovich, K. O. Impact of Ecology on Health. // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, (2022). – P. 255–257.
6. Uktamovich, K. O., & Gafurovna, A. N. NUTRIENT RECOMMENDATIONS AND DIETARY GUIDELINES FOR PRAGNENT WOMEN. // *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 3(6), . (2022). - P. 340-342

7. Uktamovich, K. O. Study of Health Indicators. // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, (2023). – P. 91–92.
8. Kadyrov Oybek Uktamovich. Noise as a Harmful Production Factor. // *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences*, (2023). - P.249–251.
9. Kadyrov Oybek Uktamovich. Industrial Poisons, Prevention of Occupational Poisoning. // *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences*, (2023). – P. 246–248.
10. Uktamovich, K. O. Dental Care Rules. // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, (2023). - P. 88–90.
11. Uktamovich, K. O. How to Properly Care behind the Oral Cavity. // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*, (2023). - P. 86–87.
12. Ibrohimov K. I. Features of Labor in Agriculture // *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES*. Voleme. – 2022. – Т. 2. – С. 87-91.
13. Ibrohimov KI. The Meal of Students // *Indonesian Journal of Education Methods Development*. - 2022. - Т. 20. - S. 10.21070 / ijemd. v20i. 629-10.21070/ijemd. v20i. 629.
14. Ibrohimov K. I. Health State of Workers of Cotton Enterprises, Structure of Diseases, Influence of Age and Work Experience // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*. – 2022. – С. 55-59.
15. Иброҳимов К. И. Чорвачилик Комплекслари Ва Фермаларда Ишловчи Ишчиларнинг Саломатлик Ҳолати, Касалланишлар Структураси, Ёш Ҳамда Иш Стажининг Таъсири // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 334-338.
16. Иброҳимов К. И. Чорвачилик Комплекслари Ва Фермаларда Ишловчи Ишчиларнинг Саломатлик Ҳолати, Касалланишлар Структураси, Ёш Ҳамда Иш Стажининг Таъсири // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 334-338.
17. Ibrohimov K. I. Research of Dust Content in the Air in Production Premises of a Grain Processing Enterprise // *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 76-80.
18. Ibrohimov K. I. INCIDENCE RATES OF LIVESTOCK COMPLEX EMPLOYEES WITH INFECTIOUS DISEASES // *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 225-229.
19. Иброҳимов К. И. ЧОРВАЧИЛИК КОМПЛЕКСЛАРИДА ЗАРАРЛИ ОМИЛЛАРНИ ТЕКШИРИШ МАТЕРИАЛЛАР, ТЕКШИРИШ УСУЛЛАРИ ВА ТЕКШИРИШ ҲАЖМИ // *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*. – 2023. – Т. 19. – №. 10. – С. 181-187.
20. **Ibrohimov K. I. Effect of Smoking on the Mineralizing Ability of Oral Fluid// INTERNATIONAL JOURNAL OF HEALTH SYSTEMS AND MEDICAL SCIENCES. - 2023/2/11. -Т. 2– №. 2.-С. 11-12**
21. Ibrohimov K. I. Chorvachilik Komplekslari Xodimlarining Ish Sharoitlari. Brusellyoz Kasalligi Bilan Kasallanish Ko'rsatkichlari // *AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI*. – 2022. – С. 20-23.

22. Ibrohimov K. I. Hygienic Assessment of Microclimate Indicators in the Main Departments of the Livestock Complex// International Journal of Studies in Natural and Medical Sciences.-2023.-С. 21-25.
23. Иброхимов К. И. Гигиеническая Оценка Показателей Микроклимата В Основных Отделениях Животноводческого Комплекса //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 7. – С. 1-5.
24. Jumaeva.A.A., Nurov.A.S. HYGIENIC PRINCIPLES OF FEEDING CHILDREN AND ADOLESCENTS // Central Asian Academic Journal of Scientific Research, (2022).-P. 258-263.
25. Nurov.A.S. STRATEGIES AND APPROACHES TO REACH OUT-OF-SCHOOL CHILDREN AND ADOLESCENTS // EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE(2023/3/30).-P. 56-58
26. Nurov.A.S. Key Considerations for Assessing School Food Environments// AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, (2023/3/30).-P. 85-87
27. Nurov.A.S. Disruption of Natural Systems Affects Health// AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, (2022/11/15).-P. 258-260
28. Nurov.A.S. The Importance of Ecology for Children's Health and Well-Being // AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, (2022/11/15).-P. 238-240
29. Nurov.A.S. CHANGES IN TASTE AND FOOD INTAKE DURING THE MENSTRUAL CYCLE // Science and innovation, (2022).-P. 251-253
30. Nurov.A.S. Causes of Rational Eating Disorders in Children and Adolescents // AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences. AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences, (2023).-P.236-239
31. Nurov.A.S. Current Problems in Providing the Population with Clean Drinking Water // AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences. AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences, (2023).-P.240-242
32. Nurov.A.S. The Role of Water in the Spread of Infectious and Non-Infectious Diseases // AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences. AMERICAN Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences, (2023).-P.243-245
33. Nurov.A.S. Existing Problems in Providing the Population With Drinking Water Through Underground Water Sources // AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, (2023).-P.77-79
34. Nurov.A.S. Cleaning of Open Water Bodies From Waste Water From Production Enterprises // AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, (2023).-P.80-82
35. Nurov.A.S. Sanitary Protection of Water Bodies and The Process of Natural Cleaning in Water Bodies// AMALIY VA TIBBIYOT FANLARI ILMIY JURNALI, (2023).-P.83-85

ДОСТИЖЕНИЕ ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЯ В КРАНОВЫХ ЭЛЕКТРОПРИВОДАХ

*Муслимбек Абдихошимов - ассистент кафедры
«Электротехники, электромеханики и электротехнологий»
Андижанского машиностроительного института
E-mail: cr7muslimbek@gmail.com*

Аннотация: В настоящее время производятся и совершенствуются оптимальные серийные электрические машины и оборудование, отвечающие особым требованиям эксплуатации крановых механизмов. Для механизмов кранов желательно рекомендовать современные электродвигатели со специальной конструкцией, высокими технико - экономическими показателями.

Ключевые слова: кран, электрический, электрический привод, механизм, напряжение, нагрузка, реостат, электродвигатель, электроприбор, электрическая энергия.

Качественный ремонт кранового электрооборудования желательно проводить только на специализированных предприятиях, где технологическая дисциплина организована на высоком уровне. Потому что от того, как будет организован ремонт, зависит бесперебойная работа электрооборудования с высокими технико-экономическими показателями. Для повышения производительности труда на таких ремонтных предприятиях применяются те же технологические процессы, что и на заводах, где производится электрооборудование[1].

Опыт показывает, что переход на централизованную систему ремонта позволяет резко сократить расходы, улучшить качество ремонта и значительно сократить его сроки, решить проблемы экономии материальных и трудовых ресурсов на производственных предприятиях. Такие мероприятия предусматривают устранение любых проблем, а также сокращения как количества фонда замены электрооборудования, так и сокращения сроков ремонта. Такие условия требуют размещения специализированных ремонтных предприятий по территориальным признакам. Для проведения единой технической политики с объединением хозяйственных зон требуется подчинение ремонтных предприятий и предприятий-производителей единому управлению[1].

Эксплуатация электрооборудования, его обслуживание, выбор, сборка и техническое обслуживание также играют ключевую роль в обеспечении надежности электрооборудования при сокращении затрат электроэнергии на промышленных предприятиях. Специалисты считают, что оптимизация использования мощности и электроприборов позволит сэкономить на их потреблении электроэнергии на 20-25%.

Практика использования электродвигателей на большинстве предприятий показывает, что во многих случаях потребители увеличивают или уменьшают мощность двигателей, а также неправильно выбирают режимы их работы и

конструктивное устройство. В результате возникают случаи преждевременного выхода из строя электродвигателей, а также чрезмерные потери[2].

Эксплуатация электрооборудования рассчитывается как сумма всех фаз его функционирования после подготовки к эксплуатации, включающая в себя доставку к месту эксплуатации; подготовка к эксплуатации по заданию, техническое обслуживание, ремонт и хранение[2].

Своевременный качественный ремонт процессов обеспечивает научную организацию эксплуатации электрооборудования, бесперебойную работу производственных механизмов в промышленности, сельском хозяйстве и на транспорте, а также снижение потребности народного хозяйства страны в новых электрических машинах[2].

Подводя итог, можно сказать, что основной задачей эксплуатации является обеспечение возможности эксплуатации электрооборудования с наивысшими экономическими показателями в установленные сроки службы[3].

Для выполнения этих задач необходимо проводить плановое техническое обслуживание электрооборудования, которое своевременно выявляет неисправности и отказы технологических машин и механизмов, а также кранов и осуществляет их своевременное устранение. Этим и служит программа достижения энергоэффективности машин и оборудования на промышленных предприятиях[1].

В последнее время выделяются направления применения асинхронных электрических приводов с частотной регулировкой в подъемно-транспортных механизмах. В качестве примера рассмотрим преимущества перехода на частотную регулировку в мостовых кранах.

Опыты и анализы, проведенные на кране, а также замеры ряда параметров показывают, что для кранового электрооборудования характерны следующие недостатки:

- электрические приводы крановых механизмов выполнены на базе асинхронного двигателя с фазным ротором сопротивления, который вводится в цепь Ротора. Взаимозаменяемое соединение ступеней резисторов в Роторе-устаревший метод управления, который не может обеспечить удовлетворительных характеристик регулировки и технического управления механизмами крана, что приводит к интенсивному износу механического оборудования.

- метод реостатной регулировки отличается низким фактором, который повышает энергопотребление при понижении частоты вращения двигателя, и его применение нецелесообразно из-за низкого КПД;

- применение релейно-контакторной аппаратуры для регулировки частоты вращения двигателей требует, чтобы в повторяющемся - кратковременном режиме электроприборы съедались с большей интенсивностью;

- в используемой схеме управления электроприводом наблюдается значительное увеличение расхода реактивной энергии, а также естественное снижение коэффициента мощности (0,5...0,6);

Перевод крановых электроприводов на частотное управление имеет следующие преимущества:

- плавная бесступенчатая регулировка скорости механизмов во всех диапазонах;
- контролируемое равномерное ускорение и торможение двигателей, что приводит к значительному повышению качества механического электрооборудования, увеличению срока его службы, улучшению простоты управления;
- это обеспечивает более высокое качество регулировки скорости при горизонтальном и вертикальном движении при использовании современного управления;
- возможность повышения коэффициента мощности до единицы создается потому что современные преобразователи частоты практически не потребляют реактивную энергию;
- экономия электроэнергии, связанная с переходом от параметрического управления к энергоэффективному управлению, а также снижение энергопотребления в режимах запуска;
- бесконтактное управление исполнительными механизмами, при этом повышается аккуратность электрооборудования;
- широкая возможность программной установки рабочих параметров механизмов, а также контроля работ и диагностики неисправностей[4].

Использованная литературы:

1. Abdulboqi o'g'li A. M. KRAN MEXAZMLARINING ELEKTR YURITMALARI //E Global Congress. – 2023. – №. 5. – С. 67-70.
2. Muhammad-Bobur Zaynabidin o'g'li X., Xolmirza Azimjon o'g'li M. MIKROPROTSESSORLI BOSHQARILUVCHI ELEKTR YURITMALARNING AFZALLIKLARI VA VAZIFALARI //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 80-87.
3. Zaynabidin o'g'li M. B. THE RELEVANCE OF THE APPLICATION OF MICROPROCESSOR RELAY PROTECTION //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 155-157.
4. Zaynabidin o'g'li M. B. RAQAMLI RELE HIMOYASINING ASOSIY ELEMENTLARI TAHLILI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 151-154.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI BO`YICHA FAOLIYATI VA USHBU SOHAGA OID MUOMMOLAR, ULARNI BARTARAF ETISH YO`LLARI

*IIV Akademiyasi 309-guruh kursanti
Ergashev Mexroj Erkin o`g`li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasidagi faoliyati, ularning ushu sohaga oid funksional vazifalari, majburiyatlari hamda ushbu sohani takomillashtirishga oid taklif, tavsiyalar, muommolar, ularni bartaraf etishda pragmatik yondashuv asosida so`z boradi.

Kalit so`zlar: Mahalliy, vazifalar, bartaraf etish, majburiyat, hokimiyat, xalq kengashi, sorovlar, taqdimnomalar, jarima, huquqbuzarlik

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕСТНЫХ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ ПО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ПРЕСТУПНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С ЭТОЙ СФЕРОЙ, ПУТИ ИХ ЛИКВИДАЦИИ

Аннотация: В статье рассмотрена деятельность органов местного самоуправления по профилактике правонарушений, их функциональные задачи и обязанности в этой сфере, а также предложения, рекомендации, проблемы, связанные с совершенствованием данной сферы, на основе прагматического подхода к их решению. устранение.

Ключевые слова: Местность, обязанности, устранение, обязательство, полномочия, народный совет, запросы, представления, штраф, правонарушение.

ACTIVITY OF LOCAL STATE AUTHORITY BODIES ON CRIME PREVENTION AND PROBLEMS RELATED TO THIS FIELD, WAYS TO ELIMINATE THEM

Abstract: This article deals with the activities of local government bodies in the prevention of crimes, their functional tasks and obligations in this field, as well as suggestions, recommendations, problems related to the improvement of this field, based on a pragmatic approach to their elimination.

Key words: Local, duties, elimination, obligation, authority, people's council, inquiries, submissions, fine, offense

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishga oid nazariy va amaliy muammolar, ularning yechimlariga bag'ishlangan. Unda huquqbuzarliklar profilaktikasi amalga oshirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etish, takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Mamlakatimizda fuqarolarning tinch va farovon hayot kechirishini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan profilaktika inspektorining ish faoliyatini samaradorligini oshirishga bag'ishlab chiqarilgan farmonlar, qarorlar va shular bilan bir qatorda Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklarning oldini olishdagi faoliyati va o'rni ham kengaytirilib, rivojlantirilib borilmoqda. Kishilik jamiyati tarixan o'zgaruvchan hodisa Ayniqsa, oxirgi yuz yilliklar davomida insoniyat misli ko'rilmagan darajadagi tezkor taraqqiyot va rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti, aholining huquqiy ongi va madaniyati, turmush darjasi, mehnat unumdorligi ortib bormoqda. Shu bilan birga, qashshoqlik, savodsizlik va ishsizlik darajasining pasayishi kutilganidek huquqbuzarliklar ko'lamining keskin pasayishiga olib kelmadi, balki ushbu soha vakillari ham taraqqiyot yutuqlaridan barcha qatori foydalana olishlar ma'lum bo'ldi. Bundan kelib chiqadiki, potentsial huquqbuzar bu o'z muammolarini, xususan, moddiy boyliklarga bo'lgan ehtiyojini boshqalar hisobiga xal etishni istaydigan odamgina emas. Bunday toifadagi shaxslar doirasining paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan omillar ham afsuski juda ko'p.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini quyidagi organ va muassasalar tashkil etadi:

- Vazirlar Maxkamasi
- Mahalliy davlat xokimiyati organlari
- Ichki ishlar organlari
- Prokuratura organlari
- Davlat xavfsizligi xizmati organlari
- Adliya organlari
- Davlat bojxona xizmati organlari
- Davlat soliq xizmati organlari
- Ta'limni davlat tomonidan boshqarish organlari va ta'lim muassasalari
- Davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari
- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari
- O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari

.Mahalliy davlat hokimiyati organlari (O'zbekiston Respublikasida) - joylardagi davlat boshqaruv idoralari. Ular mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni o'z vakolatlari doirasida o'zlari hal etadilar, umumdavlat man- faatlarini shu hududda yashab turgan fuqarolarning manfaatlarini bilan uy- g'unlashtiradilar, yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo'g'ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlaydilar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uzoq tarixiy tajribaga, milliy an'analarga tayangan holda ilg'or mamlakatlar tajribasidagi ijobiy tomonlarni o'rganib, o'z davlat idoralari tubdan qayta isloh qildi, Mahalliy davlat hokimiyati organlari hokimiyat organlari tizimini yaratdi. Mahalliy hokimiyat tizimini shakllantirish sohasida bir qator qonun va rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992- yil, 8 dek.), "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun (1993- yil, 2- sentabr)¹, "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to'g'risida"gi qonun (1994- yil, 5- may) kabilar muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20- bobida Mahalliy davlat hokimiyati organlari hokimiyat organlari faoliyatining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari o'z aksini topgan (99-104moddalar). Mazkur moddalarda Mahalliy davlat hokimiyati organlari hokimiyat organlari tizimi, mavqeyi, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining 2 bo'g'inli tizimi (ya'ni, tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari- quyi bo'g'in; viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari kengashlari- yuqori bo'g'in)ni mustahkamladi va bu mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunda o'z ifodasini topdi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari: ²

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'img'lar belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof- muhitni muhofaza qilish;
- Fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradi, xalq deputatlari quyi kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, respublika va mahalliy hokimiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadi.

¹ "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun (1993- yil, 2- sentabr)

² Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun (1993- yil, 2- sentabr)

Mahalliy davlat hokimiyati organlari hokimiyat organlari 2 ga bo‘linadi: mahalliy vakillik organlari va mahalliy ijroiya organlari. Mahalliy vakillik organlari o‘z faoliyatini kollegiallik asosida olib boradi. Mahalliy kengash ishining asosiy tashkiliy huquqiy shakli sessiya hisoblanadi. Mahalliy vakillik organlarining hamma bo‘g‘inlari saylov yo‘li bilan tashkil qilinadi. Qonun vakillik organlariga har tomonlama bilimga, tajribaga ega, keng, mustaqil fikrlovchi shaxslarning saylanishini va bu organlar ishchan bo‘lishini nazarda tutadi. 1994- yil 25 dekabrda va 1999- yil 5 dekabrda O‘zbekistondagi mahalliy hokimiyat organlariga saylovlar o‘tkazildi. Mahalliy ijroiya organlari- hokimiyatlarga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladi va u yakkaboshchilik prinsipi asosida ish olib boradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatiga aloqadorligi:

Mahalliy davlat hokimiyati organlari 2014 yil 14- mayda qabul qilingan “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan va quyidagicha keltirilgan :³

- Huquqbuzarliklar profilaktikasi doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;
- Huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hududiy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
- Aholini ijtimoiy muxofaza qilinishini ta'minlashga, qonunchilik va huquq-tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan chora- tadbirlarni ko‘radi;
- Tegishli hududa huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda mussasalarning o‘zaro hamkorligini ta'minlaydi;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Ushbu qonundan tashqari ushbu organlarni huquqbuzarliklarni oldini olishga aloqadorligini O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik kodeksida keltirib otilganligidan ham ko‘rsak bo‘ladi ya‘ni unda quyidagicha keltirib o‘tilgan: - Mahalliy davlat hokimiyati organlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitusiyasiga ham muvofiq qonuniylik, huquq- tartibot va fuqarolar xavfsizligini ta'min etib borib, o‘z hududlarida barcha davlat organlari va jamoat birlashmalarining ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishlarini muvofiqlashtirib turadilar, ichki ishlar organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo

³ O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun 2014 yil 14-may

komissiyalar hamda ularga hisobdor ma'muriy huquqbuzarlik bilan kurash olib boruvchi boshqa organlar faoliyatiga rahbarlik qiladilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari viloyatlar, tumanlar, va shaharlardagi (tumanga bo'ysunadigan shaharlar, shuningdek shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) davlat hokimiyatining vakillik organlari(xalq deputatlar kengashi) va hokimlardan iboratdir.⁴

Mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasining "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" deb nomlangan XXI bob hamda O'zbekiston respublikasining 1993- yil 2- sentabr kuni qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"⁵gi qonunda keltirilgan vakolatlariga asoslanib, huquqbuzarlilar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi. Bu borada ular huquqbuzarlilar profilaktikasiga doir davlat dasturlari bo'yicha taklif va tavsiyalar berish yoki huquqbuzarlilar profilaktikasiga doir davlat dasturlarining loyihalarini taqdim etish, shuningdek huquqbuzarlilar profilaktikasiga doir davlat dasturlarini Vazirlar Mahkamasi majlisida ko'rib chiqilishida qatnashish orqali ishtirok etishlari mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlarida belgilangan vakolati doirasida o'zi faoliyat yuritayotgan ma'muriy hududdagi kriminogen vaziyat hamda jinoyatchilikning sabab va sharoitlari tahlilidan kelib chiqib yoki ma'muriy hududda faoliyat olib borayotgan huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassalar , shuningdek prokuratura organlari huzurida tuzilgan huquqbuzarlilar profilaktikasi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlarning taklif va tavsiya yoxud taqdim etgan huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir hududiy dastur loyihasiga asoslanib , shu bilan birga, huquqbuzarlilar profilaktikasi yuzasidan tasdiqlangan davlat dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida huquqbuzarlilar profilaktikasiga doir hududiy davlat dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshirishini ta'minlaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi yuzasidan tasdiqlangan davlat dasturlarining ijrosini ta'minlash jarayonida hududiy dasturlarni viloyat, tuman, shahar kesimida yuqoridan quyiga bo'ysunuvchi shaklda ishlab chiqadilar, tasdiqlaydilar va amalga oshiradilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari "Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risida" gi qonunning 24 va 25- moddalarida belgilangan vakolatga asoslanib aholining ijtimoiy muhofaza qilinishini ta'minlashga, qonuniylik va huquq tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko'radi. Shuningdek, jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka

⁴ O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun 2014 yil 14-may

⁵ O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabr kuni qabul qilingan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun

qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora- tadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulotda hollarda tegishli ishlarni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng, milliy, tarixiy an'analarimiz, qadriyatlarimizga asoslanib, mahalliy davlat hokimiyatining o'ziga xos modeli yaratildi.

Mahalliy davlat hokimiyatiga oid vazifalarni bajarish uchun hokimlar huzurida ijroiya aparati tuzildi. Bu apparat ilgari xalq deputatlari mahalliy kengashlari va ijroiya qo'mitalari bajarib kelgan vazifalarni o'z zimmasiga oldi. Shu bilan birga, respublika va mahalliy darajadagi boshqaruv organlarning vazifalari aniqchegaralab qo'yildi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, mazkur ilmiy maqolada mahalliy davlat xokimiyati organlarining profilaktika sohasidagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha mavjud kamchilik va muammolar shuningdek, ularni bartaraf etish uchun tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishimizdan oldin, avvalo profilaktika inspektorlari hamda Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha bugungi kunda sud huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirib, ularning vazifalari va majburiyatlarini aniq belgilab berilsa ko'zlagan maqsadga yetamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash – Yurt taraqqiyoti va xalq faravonligini garovi" // TOSHKENT "O'ZBEKISTON"-2017
2. Shavkat Mirziyoev "Buyuk kelajagimizni mart va oily janob xalqimiz bilan birga quramiz". T. 2017y
3. Shavkat Mirziyoev "Ichki ishlar organlari faoliyati, tizimda mavjud muammo va kamchiliklar, istiqboldagi vazifalar"ga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi. 2017 yil 9 fevral.
4. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 2017 yil.
5. Sh.Mirziyoev. "Inson manfaatlarini taminlash uchun avvalo uning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilinmog'i zarur"-2017yil 9 fevraldagi selektor yig'ilish ma'ruzasi
6. Sh. Mirziyoev. O'zbekiston Respublikasini Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanala marosimdagi ma'ruzasi. 2016 yil 7 dekabr
7. Sh. Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi lozim. T. 2017 y II. Qonun va normativ huquqiy hujjatlar.

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -T 2021

9. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentyabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonuni

10. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2021.

11. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni.

12. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Haraktlar strategiyasi" to'g'risida"gi 4947-sonli farmoni.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-sonli Farmoni

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196 son Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14- martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-son qarori.

2.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 18 apreldagi PQ-2896-sonli qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-sonli qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi IIVning 151-sonli "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2017 yil 12 iyul buyrug'i.

19. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 4-noyabrda qabul qilingan «Huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog'liq boshqa holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 36/18/49/56-sonli qo'shma qarori

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

*IV Akademiyasi 311-guruh kursanti
Allaberdiyev O`g`bek Olimjon o`g`li*

Ўзбекистон Республикаси мустақил миллат, мустақил давлат сифатида ўз тараққиёт йўлини бошлаган дастлабки кунлардан бошлабқ умуминсоний кадриятлар, инсон ва унинг ҳуқуқларига оид халқаро қоидалар устивор эканлигини тан олди. Бу ҳол республикамиз томонидан мустақиллигимизнинг илк даврларидаёқ Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Инсон ҳуқуқларига тааллуқли енг муҳим халқаро ҳужжатлари - «Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси», «Иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида»ги Халқаро пакт, «Аёллар, болалар ҳуқуқлари»га оид конвенцияларни ратификация қилинишида, ушбу оламшумул халқаро стандартларнинг асосий принциплари ҳамда нормалари Ўзбекистон Республикасининг миллий қонунчилигига, енг аввало, Ўзбекистон Республикаси Конституциясига имплементация (халқаро нормаларнинг миллий қонунчиликда акс этиши) қилинди ҳамда муваффақият билан қўлланиб келинмоқда. Бугунги кунда шахс ва давлат муносабатларида шахс ҳуқуқларининг устунлиги эътироф этилиб, ижтимоий ҳимоя давлатимиз сиёсатида етакчи ўрин тутиши таъкидланар экан, инсон ҳақ-ҳуқуқларини янада кенгайтириш, бу ҳуқуқлар рўёбга чиқарилиши учун қулай иқтисодий ҳамда ҳуқуқий шароит, кенг макон яратилиши, инсон ҳуқуқлари кафолатларининг кучайтирилиши ва бу кафолатларининг кучайтирилиши ва бу кафолатлар натижасини таъминловчи зарур механизмлар яратилиши, масасалар уларни зудлик билан ишга туширилиши билан боғлиқ муаммолар аниқлаш, уларни зудлик билан ишга туширилиши билан боғлиқ муаммоларни аниқлаш, уларни ечимини ахтариб топиш- давлат ва жамият учун ҳам, уни ҳар бир аъзоси учун ҳам ҳаётга аҳамият касб этувчи долзарб масала ҳисобланади. Оммавий Ахборот Воситалари қонунчилигида оммавий ахборот воситалари эркинлигини ҳимоя қилиш, манбаларни ҳимоя қилиш ва ахборот олиш ҳуқуқи каби баъзи ижобий хусусиятлар мавжудлигини курсатиб кетган. Шу билан бирга, умуман олганда Оммавий Ахборот Воситалари тўғрисидаги қонун халқаро ҳуқуқда кўзда тутилган сўз эркинлиги ҳуқуқини мувофиқ ҳимоя қилиш ва қўллаб қувватлашни таъминламайди. Биринчидан, ОАВ қонуни оммавий ахборот воситаларининг барча йўналишлари ва соҳаларини тартибга солишга уринади, ҳатто масалан, оммавий ахборот воситалари, босма ва онлайн медиаларни тартибга солиш учун турли режимларга эҳтиёж бўлса ҳам. Бошқа асосий

қийинчиликлар мукамал таркибий чекловларни ўз ичига олади, масалан, оммавий ахборот воситаларига тузатишлар ёки жавобларни нашр қилиш учун ҳаддан ортиқ мажбуриятларни юклайди ва давлат органларига муайян материалларни нашр этишни буйуриш ҳуқуқини беради. Бугун ривожланган айрим давлатлар (АҚШ, Россия, Буюк Британия, Австралия, Япония, Хитой, Германия ва ҳ.к)да фуқаролар ҳафвсизлиги, уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш билан баробар, фуқароларнинг ролини ошириш, кенг жамоатчилик ишларида фаол қатнашиши, барча жабҳаларда ўз фаолиятини олиб боришлари, ҳуқубузарликлар профилактикасини ташкил этишда, жиноятларни олдини олишда кўмаклашиш мақсадида маҳалла ролини ошириб, жойларда жамоат ташкилотлари ташкил этилган. Шу орқали улар давлат органлари билан ҳамкорликда самарали иш фаолияти олиб боришга хизмат қилинмоқда, ҳуқуқ тарғибот-ташвиқот ишларини олиб борилишига, фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини янада юксалишига хизмат қилмоқда. Жамоат тартиби ва ҳафвсизлигини таъминлашда жамоатчиликнинг иштироки бўйича ўзига хос тажриба Россия Федерациясида қарор топган. Фуқаролик жамиятини такомиллаштириш уларда жамият ҳаётига дахилдорлик хиссини уйғотиш бугунги куннинг, замоннинг талаби шуни тақазо этмоқда. Ана шу талаблардан келиб чиққан ҳолда фуқаролик жамиятини қуриш заруратга айланиб бораётганлиги фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ва аҳоли Россия Федерациясида замонавий фуқаролик жамиятини шакллантиришда муҳим омилга айланди, демократияни ривожлантириш, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш қийин эканлигига жаҳонда амалга оширилаётган ўзгаришлар кўрсатиб турибди. Ана шундай ўзгаришларни амалга ошириш ва аҳолининг турмиш даражасини яхшилаш давлат муассасалари ва жамоат органлари ҳамда аҳоли ўртасидаги ўзаро алоқаларни ва ҳамкорлик самарадорлигини ошириш, аввало иқтисодиётнинг ривожланиши, аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш билан боғлиқ, миллий ва минтақавий муаммолар тинч йўл билан ҳал этишда уларнинг ҳисса каттадир. Ҳозирги вақтда Россия Федерациясида ички қонунчиликда ҳуқуқий мақомни тартибга солиш, фуқаролик жамияти институтлари ва оммавий ахборот воситаларини ташкил этиш ва фаолият юритиш тартиби, давлат ҳокимияти ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари билан ўзаро муносабатлар шаклларини таъминлайдиган кенг қамровли умумий нормалар мавжуд. Шунингдек, айрим фуқаролик жамияти институтлари, шу жумладан, ёшлар ва болалар жамоат бирлашмалари, диний ташкилотлар, адвокатлик тузилмалари, иш берувчилар ташкилотлари, ногиронлар ва бошқаларнинг фаолиятини тартибга солувчи бир қатор махсус қонун ҳужжатлари мавжуд.

Фуқаролик жамияти институтлари секторини жадал ривожлантириш, уларнинг иш шароитини, ҳуқуқий мақомини узлуксиз такомиллаштириб борилмоқда.

Россия Федерацияси ва Федерал даражадаги бошқа хорижий давлатларда конструктив мулоқот ва фуқаролик жамияти институтлари ҳамда Ички ишлар органлари ўртасидаги ҳамкорлик фуқароларни қарор қабул қилиш ва уни амалга оширишда иштирок этиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, фуқаролик жамияти институтлари самарали фаолият кўрсатишининг муҳим шarti ҳисобланади. Уларнинг ҳамкорликдаги фаолиятини ўз ичига олган бош ғоя мамлакатнинг миллий мақсадларига эришиш ғоясидир.

Фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ва аҳолининг Ички ишлар органлари билан ўзаро ҳамкорликдаги фаолиятини тартибга солувчи амалдаги қонунчиликни такомиллаштириш ва қайта кўриб чиқиш масалалари демократик давлат принципларини амалга ошириш учун долзарб аҳамиятга эга масаларлардан деб қаралади.

Фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ва аҳолининг Ички ишлар органлари билан ҳамкорликдаги фаолиятида юзага келаётган муаммоларни илмий жиҳатдан аниқлаш даражасига катта этибор қаратилмоқда. Ички ишлар органларининг оммавий ахборот воситалари ва аҳоли билан ҳамкорликдаги фаолиятининг самарасини ошириш Фуқаролик жамиятининг энг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. Ушбу масалаларни ҳал этишда ушбу институтларнинг келиб чиқиш тарихи ва ривожланиши, давлат билан ўзаро муносабатлари, шакллари, унинг муассасалари таркиби ва таснифи каби омиллар инобатга олинади. Ички ишлар органлари профилактика хизматлари ва фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ҳамда аҳолининг ҳамкорлигини оптималлаштириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш - давлат органлари томонидан домий равишда рағбатлатириб борилади. Бу эса фуқаролик жамияти институтларининг касбий фаолияти самарадорлигини оширишга ёрдам беради, давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари фаолиятида қўлланиши мумкин бўлган ишлар Конституциявий ва конституциявий даражага тенглаштирилган қонунлар билан мустаҳкамланган.

Бугунги кунда ички ишлар органлари томонидан оммавий ахборот воситалари билан ҳамкорликда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, жинойтчиликка қарши курашиш, жамоат тартибини сақлаш, фуқароларнинг ҳақ-ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, жамоатчилик билан алоқаларни янада мустаҳкамлаш борасида қилинаётган ишлар ўз самарасини бермоқда. Таъкидлаш лозимки, давлатимиз раҳбари ва ҳукуматимиз томонидан ички ишлар органлари фаолиятига юксак эътибор берилаётгани туфайли тизимда беқиёс ўзгаришлар

рўй бермоқда. Ходимларимиз самарали хизмат қилиши учун ҳавас қилса арзигулик шарт-шароитлар яратиб берилмоқда. Жумладан, Президентимиз ташаббуси билан бевосита аҳоли ўртасида фаолият олиб борадиган профилактика инспекторлари ўз ҳудудларида хизмат уйлари билан таъминланди. Эндиликда улар илгаригидек туман маркази ёки шаҳарда яшаб, ўн беш-йигирма чақирим наридаги хизмат ҳудудига қатнаётгани йўқ. Яна бир қувонарли ҳолат шуки, ҳар бир профилактика инспекторига имтиёзли кредит асосида енгил автомашина ажратилди. Бу ҳам, албатта, фаолият самарадорлигини оширишга хизмат қилаётир.

Жинойятчиликка қарши курашишда унинг олдини олиш муҳим саналади. Шу боис ички ишлар органларида профилактик тадбирларга кенг ўрин берилляпти. Айниқса, ҳафтанинг ҳар пайшанба куни «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси куни» деб эълон қилиниши жойларда профилактик тадбирлар самарадорлигини янада ошириш, аҳоли билан ички ишлар органлари ҳамда бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идораларнинг ҳамкорлигини кучайтириш, ўзаро очик мулоқот ва учрашувларни кўпайтириш имконини берди. Ўзбекистон Республикасида ўтган йиллар давомида суд-ҳуқуқ тизимида амалга оширилган ислохотлар давомида ички ишлар органлари соҳавий хизматларининг ўзаро ҳамда уларнинг давлат органлари ва жамоатчилик тузилмалари, оммавий ахборот воситалари билан самарали ҳамкорлигини таъминлаш мақсадида маҳаллаларда ички ишлар органлари таянч пунктлари фаолияти йўлга қўйилди.

Ички ишлар органлари хусусан профилактика инспекторлари оммавий ахборот воситалари ҳамда давлат органлари ва муассасалари билан ҳамкорликни амалга оширишда турли шакл ва усуллар қўлланилади. Амалиётда ва адабиётларда ҳамкорликни шартли равишда икки асосий шаклга: ўзаро ахборот алмашиш ва амалий ҳамкорликка ажратилади.

Ўзаро ахборот алмашиш ҳамкорлигининг энг кўп тарқалган шакли бўлиб, ҳамкорликка асосан ўзаро алоқадор субъектлар ўртасида ахборот алмашуви, муомалада бўлиши хосдир. Шу сабабли ҳам, Ўзбекистон Республикасининг «Ички ишлар органлари тўғрисида»ги қонунида ички ишлар органлари ўз зиммасига юклатилган вазифаларни бажариш мақсадида, қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва бошқа ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиши ҳамда аниқланган жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликларга оид мавжуд материаллар тўғрисидаги ахборотни алмашишни, шу жумладан электрон шаклда алмашишни, шунингдек бошқа ахборотни алмашишни амалга ошириши белгилаб берилган.

Ички ишлар органлари ходимлари айнан ахборотни йиғиш, таҳлил қилиш ва ўзаро алмашиш асосида ишлаб чиққан хулосага кўра ҳуқуқбузар ёки ҳуқуқбузарликка мойил шахслар билан муносабатда бўлиши, уларнинг

тақдирларини белгилаши боис ахборот олиш ва унга ишлов бериш ички ишлар органлари фаолиятининг ажралмас қисми ҳисобланади.

Ички ишлар органларининг давлат органлари ва жамоатчилик тузилмалари билан амалий ҳамкорлиги биргаликда крименоген ҳолатни ўрганиш, фаолиятга доир муайян чора-тадбирларни ҳамкорликда режалаштириш, амалга ошириш, натижаларни умумлаштириш, тезкор вазиятга мос тарзда куч ва воситаларни биргаликда тақсимлаш, қўшма тадбирларни ўтказиш, муайян вазифаларни ҳал қилишда ўзаро ёрдам бериш ва қўллаб-қувватлаш кабиларда намоён бўлади. Ички ишлар органлари фаолиятига оид ахборот олиш фақат қонунга мувофиқ ҳамда инсон ҳуқуқ ва эркинликлари, конституциявий тузум асослари, жамиятнинг ахлоқий қадриятлари, мамлакатнинг маънавий, маданий ва илмий салоҳиятини муҳофаза қилиш, хавфсизлигини таъминлаш мақсадида чекланиши мумкин. Уларнинг ахборот олиш ҳуқуқи кафолатланади ва ахборотни излаш, олиш, тадқиқ этиш, узатиш ва тарқатиш ҳуқуқи давлат томонидан ҳимоя қилинади. Ички ишлар органлари ва унинг мансабдор шахслари давлат сири ёки қонун билан қўриқланадиган бошқа сирдан иборат ахборотни беришлари мумкин эмас.

Профилактика инспекторлари жамият манфаатларига тааллуқли воқеалар, фактлар, ҳодисалар ва жараёнлар тўғрисида қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда оммавий ахборот воситаларига хабар беришлари шарт.

MUSIQANING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

Amatov Javohir Muxtorbek o'g'li

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat inistitutining
Farg'ona mintaqaviy filiali 4-bosqich talabasi*

Annotasiya: Musiqa san'ati juda qadimda paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yashagan odamlar tabiatdagi musiqiy va shovqin tovushlarni farqlay bilganlar, kuylashni o'rganganlar, dastlabki cholg'u sozlarini yaratganlar. Hozirgi kungacha bu sozlar takomillashgan, ulardagi ijro uslublari ham rivojlanib boyigan. Xalq orasidagi musiqiy qobiliyatlarga ega bo'lgan kishilar ajoyib musiqa asarlari yaratib musiqa san'atini boyitganlar. Ma'lumki yaratuvchanlik, ijod, insonga xos fazilatdir. Har bir avlod kuy va qo'shiqlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritgani uchun bu asarlar xalqniki degan fikr asoslidir. Shunday ekan musiqa inson hayoti uchun muhim hisoblanib mazkur maqolada musiqaning inson hayotidagi o'rnini bilib olishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: musiqa, inson, ritm, dunyo qarash, estetik, iste'dod, his-tuyg'u

Kirish. Musiqa – kuchli assotsiativ omil hisoblanib, u insoniyatni birlashtiradi, uni yaxlitlikka olib keladi. Inson turli xil holatlarda bo'lganda musiqa eshitishni xohlaydi. Qanday kayfiyatdaligiga qarab musiqa tanlaydi. Ba'zi insonlar hayotdan zavqlansa, baxtliligini his etsa, xursand, kayfiyati yaxshi bo'lganda sho'x musiqa eshitsalar, g'amga botgan, har xil yomon xotiralarni eslagan, kimnidir sog'ingan, kayfiyati tushgan insonlar esa g'amgin, sokin musiqa eshitadilar. Musiqa ijodiy shaxslar sog'ligi va organizmiga ko'proq ta'sir qiladi, ko'pincha ular musiqadan yo ilhomlanishadi yoki musiqa ularni aksincha zeriktiradi, u doimo bizning xotiralarimiz bilan parallel harakatlanadi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar Ichida musiqa san'atining insonni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari - ritm va kuyning inson kayfiyatiga ta'siri, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan.

Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, bog'chada, maktabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushinishdagi samarali yo'ldir. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri ta'lim-tarbiyadir.

Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go'zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san'atning xalqchilligi to'g'risidagi ta'limotga suyanib, o'quvchilarning ob'ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o'stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarning tarkib topishiga yordam beradi.

Bolalar hayotida musiqa. Musiqa bolaning badiiy va ijodiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bolalar musiqa tinglash, turli xil asboblarda musiqa qatorlari va tovushlarini takrorlashdan zavqlanishadi. Erta va maktabgacha yoshda birinchi marta jiddiy musiqa mashg'ulotlariga qiziqish paydo bo'ldi, bu keyinchalik haqiqiy sevimli mashg'ulotga aylanishi va musiqiy iste'dodning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Bolalar qo'shiq aytishni, musiqa ostida turli xil ritmik harakatlarni bajarishni o'rganadilar, bu musiqa qulog'ini, vokal qobiliyatini, ritm tuyg'usini rivojlantiradi. Bolalarning musiqiy tarbiyasi pedagogik jarayon sifatida ichki jarayonlar va tashqi ta'sirlar jarayonini qamrab oladi ularning birligi, chunki uning hayotining ichki qonunlariga muvofiq davom etadigan shaxsning musiqiy rivojlanishi tashqi ta'sirlarga bo'ysunadi.

Ma'lumki, odamlar hayotining turli jarayonlarida musiqadan mohirona foydalanish ularning uyg'unligini tartibga solishi mumkin. Binobarin, Markaziy asab tizimining tuzilishi va funktsiyasining xususiyatlari bolaning musiqaga hissiy ta'sirchanligining namoyon bo'lishining fiziologik oldindan yuborilishidir. Bolaga estetik ta'sir ko'rsatadigan musiqiy tasvirlar, shu bilan birga, uning asab tizimini mustahkamlashga, quvonchli tajribalarni keltirib chiqarishga va axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Musiqa mohiyatan, mazmunan hissiydir. Musiqaga hissiy sezgirlik eng muhim musiqiy qobiliyatlardan biridir. Bu insonning hissiy sohasini, ayniqsa bolaligida rivojlantirish uchun beqiyos imkoniyatlarni beradi. Bu, shuningdek, hayotda hissiy sezgirlikni rivojlantirish, Mehribonlik, boshqa odamga hamdard bo'lish qobiliyati kabi fazilatlarni tarbiyalash bilan bog'liq. Hissiy sferaning buzilishining sabablari har xil, ammo, qoida tariqasida, ularning kelib chiqishida– bolalar rivojlanishining dastlabki bosqichlarida (go'daklik, erta bolalik, maktabgacha yoshda) ba'zi muammolar va kechikishlar bilan bog'liqdir. Musiqa, har qanday ijod singari, bastakorning dunyoqarashini doimiy ravishda ifoda etadi va yaxshilik va yomonlikning kuchli quroli bo'lishi mumkin. San'atning eng ilhomlangan shakllaridan biri bo'lib, u o'zining ritmi, ohangi, uyg'unligi, dinamikasi, turli xil tovush birikmalari va nuanslari bilan cheksiz his-tuyg'ular va kayfiyatlarni etkazishga qodir. Musiqaning kuchi shundan iboratki, ongni chetlab o'tib, u to'g'ridan-to'g'ri ruhga, ong ostiga kirib, odamning kayfiyatini yaratadi. Uning mazmuniga ko'ra, u eng ulug'vor va olijanob his-tuyg'ularni yoki aksincha, eng qorong'u istaklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Yuksak bilimli intellektual avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Xalqaro Konferensiyaning ochilish marosimidagi nutq. “Xalq so‘zi” 2012 yil 18 fevral.
2. Mamirov Q. Musiqa vositasida yoshlarni axloqiy-estetik ma’naviyat ruhida tarbiyalash. //Musiqiy ta’lim va ma’naviyat. Resp. Ilmiy-nazariy konf.mat.to‘plami. – T.: Nizomiy nom. TDPU, 1998. – 3-5- b.
3. Vetlugina N.A. Razvitie muzikalnykh sposobnostey doshkolnikov v protsesse muzikalnykh igr. M.: APN, 1988g., -247str.
4. Soipova D. Musiqiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 y., -84 bet.
5. Немов Р. С. Психология. Кн. 2. М.: ВЛАДОС, 2001
6. Зимина А. Н. Основы музыкального воспитания и развития детей младшего возраста. М.: ВЛА ДОС, 2000.

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATLARINING ILM FAN TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

Erkayeva Munira Aliyevna

IIB-1 sonli Toshkent akademik litseyi

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada jadidchilikning muhim xususiyatlari, masalan, ma'naviyat va ilm-fan intizomi, milliy identifikatsiya, o'zlashtirish, o'qish va tarbiya jarayonini rivojlantirish, yoshlar o'rtasidagi ilm-fan va madaniy o'zgarishlar keltirilib, ularning Turkiston hayotiga ta'sirini o'rganishga harakat qilinadi. Jadidchilik, xalqaro miqyosda Osiyo musulmonlari orasida sodir bo'lgan yangi fikrlarni yaratish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish, milliy identifikatsiyani rivojlantirish va o'zlashtirishning talab qilinayotgan muhim jarayonlar hisoblanadi.

Kalit so'zlar: jadid, ziyo, ma'rifat, madarsa, maktab. ta'lim, tarbiya, ijtimoiy, erk, teatr, taraqqiyot, me'yorlari;

KIRISH

Ma'lumki jadidlar mafkurasiga ko'ra islom dini shaxsning ma'naviy kamoloti va jamiyat rivojida muhim o'rin tutgan. Ular ushbu vazifani hal etmay turib, boshqa muammolarni bartaraf qilishning iloji yo'qligini anglab yetgan. Ana shu maqsadda 1909-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy, 1910-yilda Abdulla Avloniy, 1915-yilda Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat tomonidan islom tarixiga oid asarlar yaratildi. Ushbu asarlarda ular islomning paydo bo'lishi va tarqalishining eng muhim bosqichlarini yoritib berishdi, shuningdek, islom aqidalarining noto'g'ri talqin qilinishiga qarshi chiqishdi. Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida islom dini me'yorlarini, Qur'on oyatlari va hadislarni, shariat hukmlarini to'g'ri talqin etish, ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish kabilar bor edi. Milliy taraqqiyparvarlar musulmon ruhoniylarining fanga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan vakillarini qoraladi. Taraqqiyparvarlar islom dini har bir musulmon erkak va ayollarning bilimga ega bo'lishini ularning zimmasiga burch qilib qo'yganligini keng targ'ib qilishdi.

ASOSIY QISM

"Jadidchilik" so'zi, XIX-XX asr o'rtalarida Osiyo musulmonlari orasida o'zgarayotgan fikr-ma'naviy harakatni ifodalovchi bir mazmuncha ishlatilgan. "Jadid" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, yangi, nav, qiziqarli ma'noni anglatadi. "Jadidchilik" esa ushbu yangiliklarni o'z ichiga olgan harakat va g'oyalarni to'plamini ifodalaydi.

Bu harakatning Turkiston hayotiga ta'siri asosan O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Xitoy Sharqiy Turkestondagi musulmon jamaatlariga o'tadi. Jadidchilik, islom rivojlanishi va tarixiy mirasga rioya qilish, o'zbek tili va adabiyoti, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va xalqaro tartibda hamkorlik qilish prinsiplari asosida amal qilishni maqsad qilgan.

Bu harakat, madaniyat va ma'naviyatga katta e'tibor berish, ilmiy faoliyatni oshirish, xalqaro bilim va fikrlarni o'rganishni ta'lim bermish va jamiyatda yangiliklar paydo bo'lishini xohlagan. Jadidchilik, qadimgi islom mazmuni va qadimiy tadqiqotlarga resurslar ko'paytirish, yangi ilmiy, madaniy va adabiyotlar o'rniga kiritishni maqsad qilgan.

Turkiston bo'ylab jadidchilik, ma'naviy, madaniy va ilmiy o'sishni ta'minlashda, tarbiya va ta'lim tizimini yangilashda muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, qadimgi o'zbek adabiyoti, musiqa, san'at va madaniyat turlarini rivojlantirishda ham katta hissa qo'shgan. Bu harakat, jahon madaniyoti bilan integratsiyaga erishishni, xalqaro mazmuni o'rganishni va o'zining o'ziga xos adabiy tilni yaratishni maqsad qilgan.

Jadidchilik harakatlari Turkiston hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu harakatlar, madaniyatning o'sishi, madaniy hayotning yangilanishi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, siyosiy tizimning o'zgarishi va inson huquqlarining mustamlakalari kabi ko'plab sohalarda o'zini ko'rsatmoqda.

Jadidchilik harakati, ma'rifat va ilm-fan sohasida muhim o'zgarishlar kiritdi. Jadidchilar o'zlarini rus, turk, arab va boshqa milliy tillarda yaxshi ta'lim olish mutaxassislar sifatida ko'rsatib chiqdilar. Ularning o'zlarini yangi tarzda ta'lim berish usullarini rivojlanishi, o'quvchi, o'qituvchi munosabatlarini yanada yaxshilashiga olib kelgan edi. Bu jarayon ilmiy fanlarni, matematika, fizika, kimyo va boshqa sohalarni o'rganishga aloqador edi.

Jadidchilar, tarbiyaviy va ilmiy jarayonlarni mamlakatlarini taraqqiyotiga xizmat qilish maqsadida amalga oshirdilar. Ularning faoliyatining o'zi va ularning ilmiy-ma'naviy taraqqiyoti, Osiyo bo'ylab xalqaro aloqalarni rivojlantirishga ta'sir qildi. Jadidchilik harakati, o'z navbatida, isyonchilik va boshqa adolatli xilma-xil jamiyat tuzumlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida turli shakllarda kuchlarni jamladi.

Jadidchilikning ba'zi muhim xususiyatlari:

1. Ma'naviyat va ilm-fan intizomi: Jadidchilar, ma'naviyat va ilm-fan sohasida yangi ravishlarni qo'llab-quvvatlash va o'zlashtirishga qaratilgan edilar. Madaniyatning yuqori darajada bo'lishini, ilm va faniy xususiyatlarni o'rganishni va rivojlantirishni talab qilishdi.

2. Milliy identifikatsiya: Jadidchilar, o'z milliy va madaniy identifikatsiyalarini rivojlantirish va saqlashga diqqat berishgan edilar. Ular, islom madaniyati va milliy madaniyatlarni muvofiqlikda saqlashni maqsad qilgan edilar.

3. O'zlashtirish: Jadidchilik, islom dinini o'zlashtirish va o'zaro murojaatlar jarayoniga, shuningdek, taraqqiyotga muvofiq rivojlanishga diqqat qaratgan edilar. Bu tarzda, ijtimoiy, iqtisodiy, va siyosiy islohatlarni amalga oshirishni hedef qilganlar.

4. O'qish va tarbiya: Jadidchilar, ta'lim tizimini yangilash, o'qish-va-tarbiya jarayonini rivojlantirish va uning yuqori sifatini ta'minlashni maqsad qildilar. Ular, xalqning ma'naviyati va ilmiy darajalarini oshirishni talab qildilar.

5. Yoshlar o'rtasida ilm-fan va madaniy o'zgarishlar: Jadidchilik, yoshlar o'rtasidagi ilm-fan va madaniy o'zgarishlarga diqqat qaratgan edilar. Bu harakatlar, yangi fikrlarni qo'llab-quvvatlash va yoshlar o'rtasida insoniy xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgan edilar.

Jadidchilik, xalqaro miqyosda sodir bo'lgan ma'naviy va ilm-fan g'oyalarining o'rtasida Osiyo musulmonlari orasida yangi fikrlarni yaratish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish, milliy identifikatsiyani rivojlantirish va o'zlashtirishning talab qilinishiga olib kelgan harakatlarni ifodalaydi.

Yangi usul maktablarining ochilishi. Chor hukumati Turkistonni iqtisodiy va siyosiy jihatdangina emas, madaniyma'naviy qoloqlik va qaramlik holatida ushlab turishdan ham manfaatdor edi. Ana shu niyatda o'lkamiz xalqlari o'rtasida jaxolat, xurofot va bid'atni zo'r berib avj oldirdi, ma'naviy-siyosiy manqurtlikni ko'llab-quvvatladi, Bosqinchilar Turkiston xalqining ma'rifat yo'liga kirib, o'z xaq-huquqlarini tanishi, milliy ongi o'sishiga tish-tirnog'i bilan qarshilik qildi. Ma'rifatparvarlar xalqimizning donishmand farzandlari sifatida mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni, xalqning ma'naviy holati darajasini yaxshi bilganlar. Mustaqillikka erishish uchun xalqning umumiy madaniy saviyasini davr talablari va imkoniyatlari darajasida rivojlantirish, xalqni yangi madaniyat, ma'rifatga chorchash zarurligini chuqur anglab etganlar. Xalqni Yevropa mamlakatlari madaniyati, fan-texnika yutuqlari, ilg'or tajribalari bilan tanishishga tinimsiz ravishda da'vat etganlar. Bilimli, madaniyatli, ma'naviyatli millat va xalq juda katta ijtimoiy kuchga aylanishini ma'rifatparvarlar birinchilardan bo'lib tushunib etganlar. «Asta-sekin ma'rifatchilikdan jadidchilik o'sib chiqdi va u ma'lum darajada siyosiy masalalarni olg'a sura boshladi. Yangi talim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ'ibot, tashkilotchilik, masalalari asosiy o'ringa ko'tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski maorifdan farq qiluvchi fikrg'oyalar oldinga surildi, ular mahalliy matbuot, turli kitoblar orqali keng targ'ib qilindi.

Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilgan chora-tadbirlar qatorida islom dini me'yorlarini, Qur'on oyatlari va hadislarni, shariat hukmlarini to'g'ri talqin etish, ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish kabilar bor edi. Milliy taraqqiyparvarlar musulmon ruhoniylarining fanga nisbatan salbiy munosabatda bo'lgan vakillarini qoraladilar. Taraqqiyparvarlar

islom dini har bir musulmon erkak va ayollarning bilimga ega bo'lishini ularning zimmasiga burch qilib qo'yganligini keng targ'ib qildilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, jadidlar ilm-fanni taraqqiyotning va farovonlikning asosiy yo'naltiruvchi kuchi hamda jaholatga qarshi kurashning birdan bir vositasi deb hisobladilar. Jadidlarning islomga oid g'oyalari ularni islomning asosiy ta'limotini o'zgartirishga intilganlar, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Sababi ular o'z faoliyatlarida Qur'anni ham, umuman, butun islom ta'limotini ham to'g'ri izohlab berganlar. Jadidlar o'lkani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida ham o'ziga xos qarashlarga ega edi. Taraqqiyparvarlar o'z faoliyatlari davomida o'lka xalqlarining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, kasbkori, shart-sharoitlaridan xabardor bo'lganlar. Jadidlar ko'plab yoshlarni rivojlangan xorijiy davlatlarga, jumladan, Germaniyaga o'qishga yuborish, u yerda ular tahsil olib kelib, yurt va millat uchun xizmat qilishi g'oyalarini ilgari surdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dildora H., Zafar H. TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. –2023. –T. 3.–No. 26. –С. 359-361.
2. Mahbuba Z. CHIKANO VA JADIDCHILIK HARAKATLARI HAMDA USHBU YONALISHDAGI MASHHUR NAMOYONDALAR //Involta Scientific Journal. –2022. –T. 1. –No. 6. –С. 405-415.
3. Zaidovna Y. U. JADIDCHILIK HARAKATI //Новости образования: исследование в XXI веке. –2023. –Т. 1. –No. 6. –С. 1053-1060.
4. Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
5. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari, Toshkent, 2001;
6. Markaziy Osiyo XX asr boshida: islohotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash, Toshkent, 2001.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA ILMIY FAROVONLIK

Xakimjanova Zilola G'ayratovna
IIB-1 sonli Toshkent akademik litseyi
Tarix fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish, pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hamda ilmiy farovonlik haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, odob-axloq, barkamol inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur.

KIRISH

Ma'lumki bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish, ta'lim muassasalarini zimmasiga yuklangan vazifalarni yuqori professional darajada bajarishga qodir bo'lgan rahbar va pedagog kadrlar bilan ta'minlash, rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning uzluksiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi kengaytirildi. Zamon yoshlarining jahon talabi darajasida bilim olishlari uchun bo'lajak mutaxassislarni innovasion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovasion ta'lim muhitini yaratish muammolari, xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlarda o'qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash, dars jarayonini boshqarish kabi indikatorlar asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

ASOSIY QISM

"Mutafakkirlar" va "Ilmiy Farovonliklar" ifodalariga oid ma'lumotlar o'zgaruvchan bo'lishi mumkin, chunki bu so'zlar tushunchalarning konteksti va foydalanish sohalariga qarabgina ma'noni o'zgartirishi mumkin. Umumiy ravishda, ularning ma'nosini tushunishga harakat qilamiz.

1. Mutafakkirlar:

- Tushuncha: "Mutafakkirlar" so'zi "mutafakkir" (mufakkir) jumlasining jamlangan shakli bo'ladi va fikrlarini kengaytirgan, taassurotli, mantiqiy, falsafiyalar kabi sohalarda faoliyat ko'rsatuvchi insonlar uchun ishlatiladi.

- Ma'nosi: Bu so'z o'z ichiga mantiqiy va nazariy fikrlarni olib borgan, yangi g'oyalar va fikrlar o'tkazishga intilgan insonlarni anglatadi. Mutafakkirlar fikrlarini qanday shakllantirish, izohlash va tarqatishadi.

2. Ilmiy Farovonliklar:

- Tushuncha: "Ilmiy farovonliklar" deganda, ya'ni "ilmiy" so'zi ilm bilan bog'liq, farovonliklar esa yuqori sifatli va qadriyatlantirilgan ma'noni anglatadi.

- Ma'nosi: Bu ifoda ilm fanlarida yuqori natijalar olish, yangi bilimlarni o'rganish, ilmiy tadqiqotlar va tahlillar olib borish, hamda ilmiy taraqqiyotga ega bo'lgan shaxslar, jamoalar yoki sohasi uchun ishlatiladi. Ilmiy farovonliklar odamlarning ilm bilan tanishishini, o'zlashtirishini ifodalaydi.

Bu tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar mamlakatlar, ob-havo, jamiyat va so'zlashgan sohalar bo'yicha o'zgarib ketishi mumkin. Agar bu so'zlar tushunchalari uchun ma'lumot topmoqchi bo'lsangiz, yoki ularni qanday sohada foydalanishni o'rganmoqchi bo'lsangiz, ularning muhimliklarini yana batafsil bilib olishingiz yaxshi bo'ladi.

Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o'rgatib, kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o'rgatish oilaning diqqat markazida bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim bilan birga hunar o'rgatishga bog'lab davom ettirish lozimligini alohida ta'kidlagan. Ulug' mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishini sinchkovlik bilan o'rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatlarini yuqori baholagan.

O'z-o'zidan ravshanki, serqirra faoliyat murakkab mehnatni, chuqur bilimni talab qilish barobarida hunarmand ustalar orasida ixtirochilikning keng tarqalishiga zamin yaratgan. Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'atit turk" asarida —Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib so'zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o'rganib, amalga oshiri, deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e'zozlab, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi.

Sohibqiron Amir Temur o'z saltanatida yirik mehnat taqsimoti negizida mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan hunarmandchilik – to'qimachilik, yog'och va tosh o'ymakorligi, gilam to'qish, sopol, metall buyumlar tayyorlash kabi sohalarni yanada rivojlantirishga hamda dehqonchilik, chorvachilik va savdoga katta ahamiyat qaratgan. Shu sababli ijtimoiy hayotda yangidan-yangi kasb-hunarlarining paydo bo'lishiga imkoniyat yaratilgan, ommaviy ishsizlikka yo'l ko'yilmagan. Ajdodlarimiz o'z

asarlarida yoshlarning kasbiy mehnat ta'limi va tarbiyasiga juda katta etibor berganlar. Ular kasb-hunar ta'limiga ta'lim va tarbiyaning zaruriy tarkibiy qismi sifatida yondashganlar va uni aqliy, jismoniy va manaviy tarbiya bilan birga olib borish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarga qobiliyatlarini va moyilliklarini hisobga olib, jiddiy o'ylab mehnat turini tanlash to'g'risidagi pand va nasihatlarini ko'rish mumkin. Chunonchi, Alisher Navoiy ta'lim oluvchilarning individual, o'ziga xos qobiliyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlab, —Insonlar tabiatan teng bo'lsalar ham, ammo ularga turli fazilatlar berilgan, deydi.

Farobiy o'rta asr mutafakkirlaridan birinchi bo'lib jamiyat haqidagi bir butun ta'limotni ishlab chiqdi. Uning bu xizmati jahon ilmiy adabiyotida hamma tomonidan qabul qilingan. Farobiy o'z asarlarida sezilarli darajada bir qator masalalarni yoritib bergan:

1. Ijtimoiy fanlarning mavzu va vazifalari.
2. Ijtimoiy birlashmalarning kelib chiqishi, tarkibi va ko'rinishlari.
3. Shahar-davlat, uning vazifalari va boshqaruv shakllari.
4. Jamiyatda insonning o'rni va majburiyati, ta'lim-tarbiya masalalari.
5. Davlat uyushmasining vazifalari va pirovard maqsadi, umumiy baxt-saodatga erishishning yo'llari va vositalari.

Ijtimoiy hayot haqidagi fanlar jumlasiga Farobiy shahar-davlat yoki siyosiy fanni (al-madaniyya), huquqshunoslik (fiqh) va musulmon ilohiyotini (kalom) kiritdi. Axloq va ta'lim-tarbiya haqidagi fan (pedagogika) siyosiy fanlarning bir qismini tashkil etib, umumiy baxt-saodatga erishish yo'llarini ko'rsatib berishi lozim. Axloq fani (etika) – bu jamiyat a'zolarining hatti-harakatlari haqidagi bilim bo'lsa, siyosiy fan – umuman barcha jamiyat a'zolarining fe'l-atvori va hatti-harakatlarini boshqarish haqidagi bilimdir. Farobiy fikricha, davlatni boshqarish ikki xil bo'ladi: davlat aholisini haqiqiy yoki xayoliy baxt-saodatga etaklab olib boruvchi. Boshqarish san'ati idora qilishning nazariyasini ham, amaliyotini ham nazarda tutadi. Ularni birga qo'shib olib borish, ayrim olingan har bir muayyan holatda, davlatni to'g'ri boshqarish imkoniyatini beradi. Farobiy asarida Fozil shaharni saodatga olib boradigan jamoat to'g'risida o'z maqsadlarini aytib o'tadi. Fozil shahar butun bir ahlini saodatga yetaklaydigan baxt talab qiladigan shahardir. Adshgan shahar esa uning ahli vaqtinchalik zoye ketadigan narsalarni talab qiladi. Kishilarning jamiyatga birlashishi urushlar va kuch ishlatish natijasida hamda odamlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishlari tufayli kelib chiqadi. U kishilarning mavjudligi va kamolot topishi uchun zarurdir¹. Jamiyat turli xalqlardan tashkil topadi. Xalqlarning o'ziga xos fe'l-atvorlari va xislatlarini Farobiy u yoki bu xalq yashayotgan jo'g'rofiy sharoit xususiyatlari bilan bog'liq ravishda tushuntiradi. Farobiy shahar-davlatlarni fozil yoki orzudagi va johilga bo'ladi. Orzudagisi – bu shunday shaharki, u aholisining o'zaro hamkorligi asosida mavjuddir. Shahardavlatning ichki va tashqi vazifalari bor. Kamolotning yuqori cho'qqisiga

erishgan jamiyatlarda kasb-hunarni ozodona tanlash imkoniyati bor. Bu yerda yakkahokimlik yo‘q bo‘lib, haqiqiy ozodlik va tenghuquqlik hukmronlik qiladi. Bunday shaharlarning aholisi o‘z boshlig‘ini saylaydi, ammo uni har qachon hokimiyatdan mahrum qilishi ham mumkin. Bunday shaharlarning boshliqlari o‘z faoliyatlarida adolatlilik, teng huquqlik va umumiy farovonlik qoidasidan kelib chiqadilar². Boshliq – bu o‘ziga xos muallim bo‘lib, o‘z o‘quvchilarini bilim olishga va baxt-saodatga erishish yo‘llarini o‘zlashtirishga o‘rgatadi. Ammo barcha talablarni bir kishida mujassamlashtirish qiyin, shuning uchun guruh tomonidan bo‘ladigan boshqaruvni tashkil etish mumkin. Bunday holatda jamiyatning har bir a‘zosi ushbu xususiyatlardan birortasini mujassamlashtirmog‘i lozim bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki, buyuk allomalar va mutafakkirlar kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-axloqiy, pedagogik-psixologik jihatlariga, ota-ona, maktabning roli, kasb tanlashda yosh avlodning hayot, mehnat yo‘lini mustaqil tanlashiga alohida e‘tibor bilan qarashgan. Bolani hunarga yo‘llashda uning qiziqish, moyilligi, qobiliyatini o‘rganish, bunday holatda ularning onglilik, izchillik va vorisiylik, yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligini qayd etgan.

Xullas, bu kabi misollar ajdodlarimizning kasb tanlash nazariyasini shakllantirishga munosib hissa qo‘shganidan dalolat beradi. Umumta‘lim maktablarida kasbga yo‘naltirish jarayonida ajdodlarimizning boy ilmiy merosidan unumli foydalanish ijobiy samara berishi shubhasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jalilov Z.B. Sharq mutafakkirlari merosini o‘rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta‘lim jurnali. 2017 yil, 5-son
2. Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma‘naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
3. Xajiyeva. M.Xoja Ahmad Yassaviyning ma‘naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
4. Shoxadjyayev M. Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
5. Hamdamova M. Ma‘naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya" 2008 y

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING SAMARADORLIGI

Mansurova Nilufar Muxtimovna

Xalqaro Nordik Universiteti Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslari samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari, hamda ularning samaradorligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, metodlar, matematika, loyiha, daraja

Abstract: This article discusses the use of interactive methods to increase the effectiveness of mathematics lessons in the primary grades, as well as their effectiveness.

Keywords: Primary education, methods, mathematics, project, degree

Asosiy qism: Pedagogik jarayonni tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlaridan biridir. Pedagogik jarayonni loyihalashda: 1. Pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish; 2. Natijalarni oldindan ko'ra bilish; 3. Rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihalashtirilgan kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hamkorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'rin tutadi. Loyihalar predmet va uning yo'nalishiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Loyihalarda pedagog tomonidan quyidagi faoliyatlar namoyon bo'ladi: - ketma-ket amalga oshiriluvchi va tashhisning qo'yilishi yakunlanuvchi tahliliy faoliyat; - oldindan ko'ra bilish va loyihalash. Tashhis, oldindan ko'ra bilish va loyihalash har qanday pedagogik vazifani hal etishning ajralmas uchligi hisoblanadi. Loyihaning maqsadi oldindan qog'ozda taqvim-reja, qisqacha yozma bayon sifatida aks etiriladi. Strategik, taktik va operativ vazifalarning samarali hal etilishi loyihalash texnologiyasining sifatiga bog'liq. O'quv dasturi yoki o'quvchi shaxsi ta'lim mazmunini loyihalashning asosi bo'lib, bu vaziyatda o'qituvchi pedagogik faoliyat, maqsadi va sharoitlarga muvofiq holda o'quvchilarga nimani taqdim etish xususida mustaqil qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir: 1. O'quvchilar tavsiya etilayotgan ma'lumotdan nimani va qanday hajmda o'zlashtirishlari zarurligi; 2. O'quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv ma'lumotlarini qabul qilish imkoniyatlari; 3. O'qituvchining kasbiy mahorati, shuningdek, ta'lim muassasasi moddiy texnik bazasi. Bu o'rinda o'quv ma'lumotlarini loyihalash texnologiyasi muhim o'rin tutadi. Unda: - o'quvchilarga taqdim etiladigan materiallar; - o'quvchilarga mustaqil bajarish uchun beriladigan vazifalar; - o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ma'lumot (bilim) turlari

o'z aksini topadi. Agar pedagog faoliyati o'quvchilarning talablarini qondirish, ya'ni yakuniy maqsadlarga qaratilsa, u holda pedagog yaxlit pedagogik jarayonni yoki alohida dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalashda ham qiyinchilikka duch kelmaydi. Muayyan o'quv mashg'uloti jarayonining loyihasini ishlab chiqish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi: 1. Ta'lim jarayonini loyihalashning dastlabki bosqichi o'quv predmetining mundarijasidan joy olgan mavzu yoki faoliyat mazmuniga doir manbalarni o'rganish, chunonchi, materiallarni yig'ish va ularning g'oyasi bilan ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, turkumlashtirish hamda yaxlitlashdan iborat. O'quv predmetining mavzusi yoki faoliyat mazmuniga doir manbalar mohiyatini o'rganib chiqish o'qituvchi uchun o'quvchilar e'tiboriga taqdim etilayotgan mavzu xususida ularga batafsil, mukammal ma'lumotlarni bera olish, ta'limning umumiy jarayonini tasavvur etish imkonini beradi. 2. Bu bosqich o'quv predmetining mavzusi yuzasidan yagona, umumiy maqsadni aniq belgilash, umumiy maqsad doirasida kichik bo'limlar bo'yicha hal etiluvchi xususiy maqsadlarni ham belgilash, ta'lim maqsadiga erishish yo'lda ijobiy hal etib borilishi lozim bo'lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo'naltiriladi. Ta'lim maqsadi va vazifalarining aniq, puxta belgilab olinishi o'qituvchi, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini muayan yo'nalishga solish, ta'lim maqsadiga erishishda vaqtdan unumli foydalanish, ta'lim jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan didaktik va tarbiyaviy muammolarning oldini olish, mavjud sart-sharoitlardan oqilona foydalanishga zamin hozirlaydi. Bosqich natijasi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha yagona, umumiy hamda xususiy maqsadlar, shuningdek, vazifalarni qayd etish bilan tavsiflanadi. 3. Mazkur bosqich ta'lim maqsadi va vazifalariga tayanilgan holda, o'quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iboratdir. Ta'lim jarayoni o'quv materialini mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Bu bosqich samarasi o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi. 4. Ta'lim jarayonini loyihalashning eng muhim bosqishi sanalgan bu bosqichda mashg'ulotning shakli, metodi va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi. Mazkur bosqichning muhimligi shundaki, aynan mashg'ulot shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Muayyan mashg'ulot uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik

muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi mashg'ulotlarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi. 5. Navbatdagi bosqichda o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi uchun yetarli deb belgilangan vaqt hajmi, ya'ni, muayyan mavzu yuzasidan ma'lum tushuncha, ko'nikma va malakalarning o'quvchilar tomonidan qancha vaqt oralig'ida o'zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi. 6. Mazkur bosqichda mashqlar tizimi ishlab chiqiladi. Bosqich natijasi sifatida ishlab chiqilgan mashqlar tizimining samaradorligiga alohida ahamiyat berish talabi mazkur bosqichning asosiy sharti hisoblanadi. 7. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning bu bosqichida o'quvchilarning umumiy faoliyatlarini nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri bo'lgan test tizimining ishlab chiqilishi o'quvchilarning mavzu yuzasidan muayyan tushunchalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va xolis aniqlay olish imkonini beradi. Test tizimini ishlab chiqishda testlarning izchil, uzviy hamda bir-biri bilan uyg'un bo'lishlariga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. 8. Ta'lim jarayonini loyihalashning so'nggi bosqichi yaratilgan loyihaning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, ta'lim jarayonining yakuniy darajasini o'rganish bilan nihoyalanadi. Mazkur bosqichda ta'lim jarayonining umumiy ahvoli, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelish sabablari tahlil etiladi, navbatdagi mashg'ulotlar jarayonida sodir bo'lgan kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi. Bildirilgan fikrlardan anglanadeki, har bir bosqichda amalga oshirilayotgan vazifalar o'rtasida muayyan izchillik mavjud bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Interfaol metodlar va ularning tavsifi Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologiyalar: - pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi; - o'qituvchi va

o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi; - o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi; - o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi; - o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi; - pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur. Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'limtarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Quyida amaliyotida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz. "Fikriy hujum" metodi Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. "Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laminin kengligiga bog'liq bo'ladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir saotga qadar tashkil etilishi mumkin. "Yalpiy fikriy hujum" metodi Ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qo'llash mumkin. Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axdorot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruhlar

a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi. "Fikrlarning shiddatli hujumi" metodi "Fikrlarning shiddatli hujumi" metodi Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan. Metodning mohiyati quyidagidan iborat: - jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish; - o'quvchilarda ma'lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iborat. Fikrlarning shiddatli hujumi" metodidan foydalanishga asoslangan mashg'ulot quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi: 1-bosqich: Ruhij jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan o'quvchilarni o'zida birlashtirilgan hamda son jihatdan teng bo'lgan kichik guruhlarni shakllantirish; 2-bosqich: Guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifa yoki topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlash; 3-bosqich: Guruhlar tomonidan muayyan g'oyalarning ishlab chiqilishi (topshiriqlar hal etilishi); 4-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini muhokama etish, ularni to'g'ri hal etilganligiga ko'ra turkumlarga ajratish; 5-bosqich: Topshiriqlarning yechimlarini qayta turkumlashtirish, ya'ni ularning to'g'riligi, yechimni topish uchun sarflangan vaqt, yechimlarning aniq va ravshan bayoni etilishi kabi mezonlar asosida baholash; 6-bosqich: Dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga kelish. "5x5x5" metodi "5x5x5" metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. "5x5x5" metodining afzallik jihatlari quyidagilardir: - guruhlarning har bir a'zosining faol bo'lishiga undaydi; - ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi; - guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi; - ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu metodni 5, 6, 7 va 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida "5x5x5" metodi qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod

qo'llanilayotganda mashg'ulotlarda quruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzuni qilish imkoniyati mavjud. "5x5x5" metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jumayev M.E. "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" - Toshkent.: O'qituvchi, 2004.
2. Jumayev M.E. Bolalarda matematika tushunchalarni shakllantirish nazariyasi.- T.: "Ilm-Ziyo", 2005.
3. Bikbayeva N.U. va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" - Toshkent.: O'qituvchi, 2007.

O'QUVCHILARDA SAMARALI MULOQOT QILISH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING USULLARI

Ziyoyeva Irodaxon Umidjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari va kichik yoshdagi bolalarda muloqot va kommunikatsiya qobiliyatlarini shakllantirishda foydali bo'lgan usullar va metodlar yoritilgan.

Kirish so'zlar: muloqot, kommunikatsiya, pedagog, metod, empatiya, verbal nutq, noverbal nutq.

Kommunikatsiya (ingliz tilidan olingan communication) aloqa qilish bog'lanish degan ma'nolarni anglatadi. Natijali kommunikatsiya malakalari xuddi boshqa jihatlar singari rejalangan, boshqarilgan va o'rganilgan bo'lishi lozim. Bu o'z ichiga natijali nutq va eshitish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Masalan: Ingliz tili va ona tili kabi darslarida (o'quvchilar sinfidan qat'iy nazar) dars jarayonida ko'proq kommunikatsiyani yo'lga qo'yish pedagog va bola o'rtasidagi aloqalarni yaxshilashga xizmat qiladi. Darhaqiqat muloqot ko'nikmalarini o'rganish va o'rgatish o'qituvchi uchun eng muhim va zarur faoliyat hisoblanadi. Biroq "qayerdan va nimadan boshlash kerak" degan savol o'ta o'rinli.

O'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning beshta asosi quyidagilar:

Birinchidan samarali muloqot qanaqa bo'ladi va qanday shakllantiriladi va nimalarga e'tibor berish lozim?

1. Faol tinglovchi bo'la olish, suhbatdoshning nutqiga qiziqish bildirish;

Bu shuni anglatadiki, nutqni shunchaki tinglash emas balki uni o'z nuqtai nazaridan o'ylab ko'rish fikr bildirish va muloqot qilish lozim. Bu yuqori fikrni jamlashni va diqqatni talab qiladi.

2. Empatiyaga egalik qilish;

Empatiya so'zining ma'nosi bu suhbatdoshni dard qayg'usini chin yurakdan his qilish, hamdardlik bildirishdir. Empatiya yana shuni ham anglatadiki, o'zganing nuqtai nazarini tinglash, tushunish ko'pincha o'zimizning xulosalarimizni e'tibordan chetda qoldirishimizga to'g'ri keladi. Empatiya muloqotda hissiyotlarni va g'oyalarni e'tiborga olishda va tushunishda juda muhim sanaladi.

3. Noverbal usulda muloqot qilish

Muloqotning 93% noverbal nutq usulida namoyon bo'ladi. Nutq asosan qaysi usulda hosil bo'lishiga ko'ra verbal nutq va noverbal nutq kabi turlarga bo'linadi. Verbal nutq deb ovoz chiqargan holda so'z va gaplarni talaffuz qilishimiz va fikrimizni

ifodalashimizdir. Noverbal nutq esa buning aksi ya'ni ovoz chiqarmasdan tana a'zolarimiz bilan muloqot qilishimizdir. Noverbal nutqqa ko'z bilan aloqa qilish (eye contact), qo'l harakatlari (jestlar), yuz harakatlari (mimikalar), tana harakatlari (pantomimalar)ni misol keltirishimiz mumkin va bularning barchasi yaxshiroq muloqot qilish imkonini beradi.

4. Sezgir bo'lish.

Boshqalar kuchli his tuyg'ularni boshdan kechirayotgan vaqtda sezgir bo'lish va o'zimizning his tuyg'ularni tan olib to'g'ri baholash muhimdir. Har bir hissiyotlarni jahl, g'am, tushkunlik, xursandchilik kabilarni jilovlay olgan holda muloqot o'rnatish bu yaxshi kommunikatsiyani namoyish qilish demakdir.

5. So'zlardan foydalanish;

